

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix FAKULTETI

401 -guruhi talabasi Matniyazov Xamidjonning

5111600 “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va xuquq ta'limi” yo`nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash-davlat siyosatining
ustuvor yo`nalishi.**

Ilmiy rahbar:

dots. A.Abdullaev

Urganch 2015 yil

1-ilova. Bitiruv malakaviy ishining titul varag'i

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix
(fakultet nomi)

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
(kafedra nomi)

**O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash-davlat siyosatining ustuvor
yo`nalishi.**

(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

Bajaruvchi: Matniyazov Xamidjon

Rahbar : dots. A.Abdullaev

Urganch shahri
2015-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix

(fakultet nomi)

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

(kafedra nomi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

Talaba. Matniyazov Xamidjonga Universitet rektorining «189 T 1&»-sonli 17 noyabr 2014 yil buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun

“O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash-davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi” mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan dots. A.Abdullaev

bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: Bitiruv malakaviy ish-Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlaridan, Oliy Majlis palatalari yig'ilishlari materiallaridan, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiyalardan, matbuot va internet materiallaridan olindi.

5. Bitiruv malakaviy ishga _____

_____ **ilova qilinadi.**

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>№</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
1.	Ishning rejasini tuzish va adabiyotlar izlash.	2014 yil dekabr
2.	Materiallar izlash	2015 yil yanvar
3.	Ishning kirish qismini tayyorlash	2015 yil fevral
4.	I-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil qilish	2015 yil mart
5.	II-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil qilish	2015 yil aprel
6.	Ishning xulosasini tayyorlash	2015 yil may
7.	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatini tuzish	2015 yil may

Bitiruv malakaviy ish raxbari:

dots. A.Abdullaev

Bajaruvchi talaba:

Matniyazov Xamidjon

2014 yil «6 » dekabr

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2014 yil tasdiqlandi

(«6»- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri:

t.f.n. U.Sherpov

(imzo)

3-ilova

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba: Matniyozov Xamidbek

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash-davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi.

Bitiruv malakaviy ish xajmi: 74 sahifa

Tushuntirish hismi: 60 sahifa

Ilovalar soni: -

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab, aholi daromadlari va farovonligi darajasini muttasil o'stirib borish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan barqaror va kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirib kelinmoqda.

Ayniqsa aholining kam ta'minlangan ehtiyojmand qismini ijtimoiy muhofaza qilishga e'tibor berilmoqda.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi: Matniyozov Xamidbek barcha fanlarni to'la o'zlashtirib, ularni amaliyotga qo'llash ko'nikmasiga ega.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari Matniyozov Xamidbek o'zi mustaqil ishlay oladi, mahsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyatiga ega. O'zining mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ishlashga layoqatli, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, o'z ustida muntazam ishlaydi. Muomulasi yaxshi, ishga mas'uliyat bilan yondashadi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Ishning amaliy ahamiyati

katta bo`lib, uning materiallaridan umum ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o`quvchilari, Oliy o`quv yurtlari talabalari ijtimoiy-gumanitar fanlarni o`rganishda va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi.

Ish to'la talabga javob beradi. Uning materiallaridan amaliyotda keng foydalanish mumkin

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

dots. A.Abdullaev

(f.i.sh.)

2015 yil « 28 » may

Urganch davlat universiteti

Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishining

Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi: . O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash-davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi.

Malakaviy ishning hajmi. 13 ming so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 60 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: _____

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi. Ishning mavzusi dolzarb, berilgan topshiriqqa mosdir

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati. Ishning kirish qismida dolzarbligi, ilmiy o'rganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbasi, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va hajmi o'z aksini topgan bo'lib, to'la talabga javob beradi.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi. Bitiruv malakaviy ishda ilmiy adabiyotlardan, innovatsion yutuqlar natijalaridan, prezident asarlaridan keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan

asoslanganligi. Ishda mavzuga oid barcha ma'lumotlar umumlashtirilgan va tahlil qilingan. Ish ilmiy uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan to'la asoslab berilgan. Amaliy ahamiyati ham ko'rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari. Ishda mavzuning ilgari kitoblarda aks ettirilmagan jihatlari ko'rsatib berilgan. Ishning materiallari va tavsiyalardan ta'lim sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganishda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar. Ishda ayrim texnik kamchiliklar va juz'iy orfografik xatolar mavjud. Ular ishning ahamiyatini pasaytirmaydi.

Taqrizchi:

Alimova Dono TTA Urganch filiali dotsenti

2015 yil « » _____

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo`limlar	Eng yuqori ko`rsatkich ball hisobida
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	“Xulosa” hismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo`yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma`ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e’tiborga olingan holda baholash mezonlariga o’zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

6-ilova

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishining bitiruvchisi
Matniyazov Xamidbekning "O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash-davlat
siyosatining ustuvor yo'nalishi" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK
ning «____» 2015 yil «____iyun» dagi majlisida himoya qilinadi.

**Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi
o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.**

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon hila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	
Jami:			

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. "O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash-davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi" mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va «____» deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

2015 yil «____» _____

Urganch davlat universiteti Tarix Fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

Bitiruv malakaviy ish _____sonli tartib raqam bilan
qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Matniyazov Xamidbek

**Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: O'zbekistonda aholini ijtimoiy
himoyalash-davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi**

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: dots. A.Abdullaev

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2015 yil «____» mayda o'tkazilgan majlisi
aroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Alimova Dono TTA Urganch filiali
dotsenti tayinlandi.

Kafedra mudiri:

t.f.n. U.Sheripov

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha
tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:

t.f.n. O.Shixov

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 5111600 ta'lim bakalavr

Tasdiqlayman
fakultet dekani

“ ____ ” ____ 2015 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba : Matniyazov Xamidbek

Ishning mavzusi: “O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash-davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi.”

«17 noyabr 2014 yil universitet rektorining 189 T 1& sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “ ____ ” ____ 2015 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati.

¹ Begmatov A. Kuchli ijtimoiy siyosat moxiyati. T. 2005 y

² Usmonova M. Keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoyalash. T. 1994 y

³ Yormatov F. Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish-davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishidir. Falsafa va huquq. 2010y 1 son

⁴ Abdulqosimov H. Davlat siyosati: inson manfaatlari va ijtimoiy ximoya. Fuqarolik jamiyati. 2007y 1 son

⁵ Tojibaev M. Xalq farovonligi g'oyasi va uning mohiyati. Falsafa va huquq. 2009 y maxsus son

⁶ Ibragimov M. Ijtimoiy himoya-asosiy mezon. Jamiyat va boshqaruv. 2008 y 1 son

⁷ Norbekov A. O'zbekistonda ijtimoiy kafolat tizimini yaratish muammolari. T. 2009 y

4. Ishning maqsadi: Ishda O'zbekistonda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning mohiyati, uning barcha islohotlarini amalga oshirish omili ekanligini, aholining moddiy yordamga muxtoj qatlamlarini ijtimoiy himoyalash borasida olib borilayotgan tadbirlar va ularning natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish

asosiy maqsad hisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiquvchi vazifalar quyidagilar:

- kuchli ijtimoiy siyosat, barcha islohotlarni amalga oshirish omili ekanligini yoritish;

-O'zbekistonda inson manfaati hamma narsadan ustun ekanligini ko'rsaish;

- O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining shakllanishini ochib berish;

-Yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish- davlat siyosatining ustuvor vazifasi ekanligini tadqiq qilish;

-Yoshlarga g'amho'rlik insonparvar jamiyatning bosh maqsadi ekanligini ko'rsatib berish.

5. Chizma materiallar ro'yxati:_____

6.Maslahatchilar:_____

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi

Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni:

Alimova Dono TTA Urganch filiali dotsenti

7. Ilmiy rahbar:

dots.A.Abdullaev

BMI bajaruvchi talaba:

Matniyazov Xamidjon

Kafedra mudiri: t.f.n. U.Sheripov
(F.I.Sh.)

(imzo)

MUNDARIJA

Kirish.....	16-19
I . Bob Kuchli ijtimoiy siyosat-barcha islohotlarni amalga oshirish omili.	
1.1 Aholini ijtimoiy himoyalashning huquqiy asoslari.....	20-27
1.2 O`zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining shakllanishi.....	28-37
II. Bob. Aholining ehtiyojmand qismini ijtimoiy muhofaza qilish-davlat siyosatining ustuvor yo`nalishi.	
2.1 Keksalar va nogironlarni ijtimoiy qo`llab quvvatlash-ustuvor vazifa.....	38-52
2.2 Yoshlarga g'amxo`rlik insonparvar jamiyatning bosh maqsadi.....	53-68
Xulosa.....	69-70
Foydalanilgan adabiyotlar.....	71-74

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda istiqloolning dastlabki kunlaridan boshlab, aholi daromadlari va farovonligi darajasini muttasil o`stirib borish bo`yicha aniq maqsadga yo`naltirilgan barqaror va kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirib kelinmoqda.

Ayniqsa aholining kam ta`minlangan ehtiyojmand qismini ijtimoiy muhofaza qilishga e`tibor berilmoqda.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o`tishning besh tamoyilidan biri ham kuchli ijtimoiy himoyadir. Aholi ijtimoiy muhofazasi bu- mamlakatimizda olib borilayotgan ko`p qirrali ustuvor yo`nalishning asosini tashkil etib, xalqimizning to`laqonli hayot kechirishi va faoliyat ko`rsatishiga qaratilgan.

O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi,- “Barchamizga ma`lumki dunyoda “O`zbek modeli” degan nom bilan tan olingan mustaqil taraqqiyot yo`limizning negizida turgan mashhur besh tamoyildan biri kuchli, ijtimoiy siyosat olib borishdan iboratdir”.¹

Ijtimoiy muxofaza birinchi galda muhtoj bo`lgan aholi toifalari- ko`p bolali va kam ta`minlangan oilalar, yolg`iz keksalar, etim-esirlar va nogironlar, talaba va pensionerlarning manfaatlarini har tomonlama himoyalashga qaratilgan.

Hozirgi kunda respublikamizda davlat budjetining 60 foiziga yaqini ijtimoiy sohaga, aholini ijtimoiy muxofaza qilishga sarflanmoqda.

Maxallalar, jamoat tashkilotlari, tadbirkorlar mablag`laridan ham ijtimoiy himoya uchun foydalanilmoqda. Ijtimoiy himoyaga manzilli, maqsadli yondashishga e`tibor berilmoqda.

Eng muhimi yordamga ehtiyoj sezib yashaydigan oilalar va odamlarning barchasiga bir ko`z bilan qaramasdan, balki har bir toifaning o`ziga xos qiyinchiligi va dardi, g`amu tashvishlarini yaqindan o`rganib, bu ehtiyojlarni qondirishga xarakat qilinmoqda.

O`zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash davlat siyosatining ustuvor

¹ Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz- yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo`lini qat`iyat bilan davom ettirishdir. Toshkent. “O`zbekiston”, 2008y, 6 bet

yo`nalishiga aylangan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2006 yil 7 sentabrdagi “2007-2010 yilarda yolg’iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muxofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko`rsatishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari dasturi to`g`risida”gi qarori buning yana bir yorqin dalilidir.”¹

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta`kidlaganidek, “haqiqatan ham, qariyb yigirma yillik mustaqil taraqqiyotimiz maboynida O`zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o`sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani e`tiborga sazavordir.

Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar sohada erishilgan marralar-aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo`naltirilgan davlat xarajatlarining 5 barobar ko`paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida onalar o`limi 2 barobardan ko`proq, bolalar o`limi 3 barobar kamaygani, odamlarning o`rtacha umr ko`rishi 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan ayollarning o`rtacha umr ko`rish 75 yoshga etganini mamnuniyat bilan ta`kidlasak arziydi, deb o`ylayman”.²

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi va muhim manbasi.

Ishni tayyorlashda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning “O`zbekiston buyuk kelajak sari”, “O`zbekiston XXI asrga intilmoqda”, “Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir”, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag`ishlangan tantanali yig`ilishlardagi ma`ruzalari, “mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi”, nomli asarlari, Vazirlar Mahkamasida har yili o`tkaziladigan yil yakunlari bo`yicha yig`ilishdagi ma`ruzalari metodologik asosi, mavzuga oid, ilmiy maqola, risola va monografiyalar, ommaviy axborot vositalari va internet materiallari muhim manba bo`lib xizmat qildi.

¹ Karimov I.A. “2007-2010 yilarda yolg’iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muxofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko`rsatishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari dasturi to`g`risida”gi qarori”. Xalq so`zi. 2006 y 3 oktabr

² Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. Toshkent. “O`zbekiston” 2010 y. 4-5 betlar

**Mavzuning ilmiy o`rganilganlik darajasi.** Mustaqillik yillarida olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning mohiyati, o`ziga xos xususiyatlari, aholini ijtimoiy himoyalash borasida olib borilayotgan amaliy tadbirlar, ularning natijalari respublikamiz olimlarining ilmiy maqolalari, risola va monografiyalarida o`z aksini topgan..

Ular quyidagilar. A.Begmatov¹, M.Usmonova², F.Yormatov³, H.Abdulqosimov⁴, M.Tojiboev⁵, M.Ibragimov⁶, A. Norbekov⁷ va boshqalarning ishlarida kuchli ijtimoiy himoya masalalari atroflicha yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Ishda O`zbekistonda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning mohiyati, uning barcha islohotlarini amalga oshirish omili ekanligini, aholining moddiy yordamga muxtoj qatlamlarini ijtimoiy himoyalash borasida olib borilayotgan tadbirlar va ularning natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish asosiy maqsad hisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiquvchi vazifalar quyidagilar:

- kuchli ijtimoiy siyosat, barcha islohotlarni amalga oshirish omili ekanligini yoritish;
- O`zbekistonda inson manfaati hamma narsadan ustun ekanligini ko`rstaish;
- O`zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining shakllanishini ochib berish;
- Yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish- davlat siyosatining ustuvor vazifasi ekanligini tadqiq qilish;
- Yoshlarga g'amho`rlik insonparvar jamiyatning bosh maqsadi ekanligini ko`rsatib berish.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishning materiallaridan umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari akdemik litseylar,

¹ Begmatov A. Kuchli ijtimoiy siyosat mohiyati. T. 2005 y

² Usmonova M. Keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoyalash. T. 1994 y

³ Yormatov F. Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish-davlat siyosatining muhim ustuvor yo`nalishidir. Falsafa va huquq. 2010y 1 son

⁴ Abdulqosimov H. Davlat siyosati: inson manfaatlari va ijtimoiy ximoya. Fuqarolik jamiyati. 2007y 1 son

⁵ Tojibaev M. Xalq farovonligi g'oyasi va uning mohiyati. Falsafa va huquq. 2009 y maxsus son

⁶ Ibragimov M. Ijtimoiy himoya-asosiy mezon. Jamiyat va boshqaruv. 2008 y 1 son

⁷ Norbekov A. O`zbekistonda ijtimoiy kafolat tizimini yaratish muammolari. T. 2009 y

Oliy o`quv yurtlari va talabalari O`zbekiston tarixi, Siyosatshunoslik, O`zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, Iqtisodiyot nazariyasi kabi fanlarni o`rganishda muhim manba sifatida foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va xajmi. Ish- Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, uning xajmi 74 sahifani tashkil etadi.

I. Bob Kuchli ijtimoiy siyosat-barcha islohotlarni amalga oshirish omili.

1.1 Aholini ijtimoiy himoyalashning huquqiy asoslari

“Ijtimoiy himoya” tushunchasi keng ma’noda, aholining barcha qatlamlariga, kasbiy, tarmoq, mintaqaviy va boshqa belgilari bo’yicha nisbatan qo’llaniladigan hamda ijtimoiy xatar yuz berganda moddiy va boshqa yordam ko’rsatishga qaratilgan chora tadbirlar yig’indisidan iborat.

“Ijtimoiy himoya” tushunchasi tor ma’noda, ijtimoiy zaif qatlamlarga-qariyalar, nogironlar, ko’p bolalilar va boshqalarni moddiy himoyalashni ko’zda tutadi.

Ijtimoiy siyosat deganda, davlatning jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning hal qilinishiga bo’lgan munosabati, ijtimoiy infratuzilmalarning samarali va bir maromda amal qilinishini ta’minlashga qaratilgan kundalik davlat faoliyati, ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarning bajarilishining ta’minlanishidagi strategiya va taktik yondashuv nazarda tutiladi.

“Aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlash islohotlarning barcha bosqichida ustuvor yo’nalish bo’lib hisoblanadi”, - deydi prezident I.A.Karimov.¹

O’zbekiston respublikasi prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Davlat o’z aholisini ijtimoiy himoya qilgan taqdirdagina insonparvar hisoblanadi”.

Mustaqillik yillarida yurtimizda aholini ijtimoiy himoyalashning huquqiy asoslari va me’yoriy hujjatlari yaratildi. Bu O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi. Konstitutsiyaning 18-47 moddalari fuqarolarning shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy huquqlariga bag’ishlangan.² Unda inson manfaati hamma narsadan ustun deyilgan. Bizning Konstitutsiyamizda dunyoviy ne’matlar ichida eng ulug’i insondir deyilgan. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar,

¹ Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent, “O’zbekiston” 1999y. 14bet

² O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent “O’zbekiston”, 2014 y 10-18 betlar

Vazirlar Mahkamasining qarorlaridir. Masalan: “Aholini ish bilan ta’minlash to’g’risida”gi, ”Fuqarolarning sog’lig’ini saqlash to’g’risida”gi, “Uy joy fondini xususiyashtirish to’g’risida”gi, “Iste’molchi huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi, “Yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to’g’risida”gi qonunlar, mehnat,oila, fuqarolik kodekslari va boshqalar. Shuningdek, “Aholi jamg’armalardagi mablag’larni indeksatsiya qilish to’g’risida”gi, “Bolali oilalarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to’g’risida”gi, “O’zgalar parvarishiga muhtoj yolg’iz pensionerlarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan qo’shimcha tadbirlar to’g’risida”gi, “O’zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash “Nuroni” jamg’armasi to’g’risida”gi, “Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to’g’risida”gi (1994 y 24 avgust) “Aholini aniq yo’naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta’minlashda fuqarolar o’zini o’zi boshqarish organlarining rolini oshirish to’g’risida”gi (2000-2005 yillarda), ”Yolg’iz keksalarni, pensioner va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi to’g’risida”gi 1999y 7 dekabr va boshqa Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Prezident Farmonlari qabul qilindi. 2001 yil 8 iyundagi Qoraqolpog’iston Respublikasi va Xorazm viloyatida aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar hamda suv taqchilligi oqibatlarini engillashtirish to’g’risidagi Vazirlar Mahkamasining qarori 2001 yil 12 iyunda Vazirlar Mahkamasining “2001-2002 o’quv yilida O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalariga qabul to’g’risida”gi qarori, 2001 yil 29 iyundagi ish haqini, pensiya, stipendiyalarni oshirish to’g’risidagi farmon va boshqalardir.

Bevosita ijtimoiy himoyaga bag’ishlangan normativ-huquqiy hujjatlar:

- O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolali oilalarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to’g’risida”gi 1996 yil 10 dekabrda PF-1657 sonli farmoni;
- O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo’naltirilgan tarzda qo’llab-quvvatlashni kuchaytirish to’g’risida”gi 2002 yil 25 yanvardagi PF-3017 sonli farmoni;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2000 yil 15 noyabr, 24 iyundagi 319-son qarori;
- O'zbekiston Respublikasi "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonuni, 1991 yil 18 noyabr;
- O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi qonuni. 1999 yil 17 mart;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz pensionerlarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. 1991 yil 21 may
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida"gi farmoni. 2002 yil 25 yanvar.¹

2007 – "Ijtimoiy himoya yili" Davlat dasturi bo'yicha qabul qilingan normativ hujjatlar. (2007 yilning o'zida 26ta qonun va boshqa normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi). Jumladan: "Yod etishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risida (2007y 3 may)".

- Qonun bilan yod etishmasligi kasalliklarini oldini olish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi;
- Yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

"Homiylik to'g'risida" (2007 yil 2 may)

-Homiylik yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik maqsadlarida boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga mol mulkni, pulni qaytarmaslik sharti bilan ular uchun ixtiyoriy beg'araz yordami;

-Homiylik birinchi marotaba qonun bilan tartibga solindi;

-Homiylik tashkilotiga huquqiy ta'rif berildi;

"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida (2007yil 7 dekabr)". 2007 yilning 1-oktabridan pensiyani hisoblash

¹ Normativ xujjatlar to'plami. T. 2003 y. 10, 15, 18, 21, 34, 43, 55, 60 betlar

uchun qabul qilinadigan ish xaqining miqdori 7 (etti) baravardan 8 (sakkiz) baravarga oshirildi.

“Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”. Kam ta`minlangan oilalarga beriladigan nafaqa miqdori 1,5 baravarga oshirildi va to`lash muddati 6 oyga o`zgartirildi.

“Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdori indeksatsiyalab borildi”. (oxirgi indeksatsiya 2007 yil 23 oktabr).

“Yosh oilalarni moddiy va ma`naviy qo`llab-quvvatlash to`g`risida”; Yosh oila-30 yoshgacha tuzilgan oila birinchi marta rasmiy nikohdan o`tgan yoshlardir, Yosh oilalarga tijorat banklari tomonidan imtiyozli shartlar asosida ipoteka, iste`mol va mikrokreditlar berish yo`lga qo`yildi.

O`zbekiston Respublikasida mehnat qilish va ish bilan band bo`lish sohasida milliy qonunchilikni yaratish barobarida bu boradagi xalqaro umume`tirof etilgan printsiplarni tan olish va ularga qo`shilish orqali demokratik huquqlar joriy qilinmoqda .Bu borada istiqlol yillarida qator xalqaro hujjatlar, jumladan, “Ish bilan ta`minlash siyosati to`g`risida”gi 122-Jeneva Konventsiyasi, “Majburiy mehnatni tugatish to`g`risida”gi 105-Konventsiya, “Bir xil qiymatga ega bo`lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag`batlantirish to`g`risida”gi Konventsiya, “Mehnat va mashg`ulotlar sohasidagi kamsitishlar to`g`risida”gi kabi Konventsiyalar ratifikatsiya qilingan. Ushbu hujjatlardagi asosiy printsiplar O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida aks ettirilgan.

Fuqarolarning ish bilan ta`minlanishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida “Aholini ish bilan ta`minlash to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilingan. Unda aholini ish bilan ta`minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari, mehnat qilish huquqi kafolatlari belgilab qo`yilgan. Qonunning 7-8 va 9 moddalarida aholining ayrim toifalarini ishga joylashtirishdagi qo`shicha kafolatlar belgilangan bo`lib, ular qo`shimcha ish joylari, ixtisoslashgan korxonalar, jumladan nogironlar mehnat qiladigan korxonalar barpo etish, ish o`rgatishning maxsus dasturlarini tashkil etish, korxona, muassasa va tashkilotlarga mazkur toifadagi fuqarolarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam

miqdorini belgilash, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa choralar bilan ta'minlanishi belgilab qo'yilgan.¹ Qonunda davlat boshqaruvi organlarining aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi vakolatlari bilan birga ish beruvchilarning bu boradagi ishtiroki, shuningdek, Kasaba uyushmalari va xodimlar boshqa vakillik orgnalarining aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashishdagi ishtiroki ham belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi davlat siyosati masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlarini va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, mahalliy davlat xokimiyati organlariga, ish beruvchilarga aholini ish bilan ta'minlash va aholining ijtimoiy kafolatlariga oid masalalar yuzasidan o'zaro maslahatlashuvlar o'tkazish haqida takliflar kiritish huquqiga ega. Qonunda, ishdan mahrum bo'lgan chog'idagi ijtimoiy kafolatlar ham belgilangan.

“Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida”gi mazkur qonunning ijro mexanizmini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari, me'yoriy hujjatlari, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining normativ-hujjatlari ham ishlab chiqilgan bo'lib, ular ham aholi bandligi sohasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari tarkibiga kiradi.

Barcha ijtimoiy munosabatlar qatori aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi munosabatlar ham rivojlanib, murakkablashib borishini inobatga olsak, bu sohaning huquqiy asoslari ham takomillashtirilishi zarur, degan xulosaga kelamiz. Xususan, yuqorida qayd etilgan qonunning 13-moddasida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolari Respublika hududidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shug'ullanish, mustaqil ish qidirish va ishga joylashish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilganligiga qaramay, bu huquqni amalga oshirish qonuniy jihatdan to'liq tartibga solinmagan. Mustaqillik tufayli barcha chet el fuqarolarining mamlakatimizda mehnat qilish va boshqa huquqlarini qonuniy amalga oshirishi uchun imkoniyat yaratilishi bilan birga respublika fuqarolarining ham istagan

¹ Umarova Sh. Aholini ish bilan ta'minlash va uning huquqiy asoslari. O'zbekiston ovozi. 2006 y. 25 avgust

joylarida mehnat qilishlari uchun keng imkoniyatlar ochib berildi. Lekin chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirish istagidagi fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning bu huquqlari qonunlarimizda to'liq kafolatlanmagan. Tashqi mehnat migratsiyasiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar bugungi kun talablaridan kelib chiqib takomillashtirilishi, hayotga tatbiq qilish mexanizmi mukammal ishlab chiqilishi lozim, deb o'ylaymiz. Shu maqsadda "Aholi migratsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinishi, unda chet el fuqarolarining O'zbekiston Respublikasiga mehnat migratsiyasi va O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqi belgilanishi, bu huquqlarni amalga oshirish uchun vakolatli organlar bilan birga fuqarolarni chet elda ishga joylashtirish bo'yicha hususiy byurolar ham faoliyat yuritishi mumkinligi, ularning huquq va majburiyatlari belgilanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni ishchi-xizmatchilar huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, hozirgi paytda yurtimizda uning ijrosini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

O'rganish chog'ida poytaxtda korxona va ob'ektlarda mehnatni muxofaza qilish talablariga rioya etilishi, ishchi-xizmatchilar sog'ligi va xavfsizligi nechog'li ta'minlangan hamda kasb kasalligi paydo bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan korxonalarda fuqarolar ijtimoiy himoyasiga qaratilayotgan e'tibor masalalari chuqur tahlil etildi.¹

2013 yil 14 fevralda Prezidentimizning "Obod turmush yili" Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Davlat dasturi 8 ta bo'lim va 86 ta banddan iborat bo'lib, unda 2013 yilda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy siyosiy hayotidagi muhim yo'nalishlar qamrab olingan.

Uning 1-bo'limi "Mamlakatda barqarorlik va osoyishtalikni, xavfsizlikni, fuqarolar va millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash, inson huquqlari, erkinligi va manfaatlari muhofazasini, jamiyat farovonligi va taraqqiyoti izchil

¹ Xudayshukurov Z. Mehnat muxofazasi. Xalq so'zi. 2012 y 15 fevral

o'sishini ta'minlash",deb nomlanib Dastur bo'yicha 8 ta qonun qabul qilindi.

Bular : “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi va “Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida”gi (yangi tahrirda). ”Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi, “Ijtimoiy sheriklik to'g'risida”gi, “O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi, “O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi va O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga oila institutini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi, “Ekologik nazorat to'g'risida”gi qonun loyihalardir.

Yuqorida nazarda tutilgan qonun loyihalardan “O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi hamda “O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi va O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga oila institutini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonunlardir¹

“Obod turmush yili” Davlat dasturida belgilangan barcha tadbirlar to'la amalga oshirildi.

Yurtboshimiz, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, “Dastur doirasida barcha manbalar hisobidan 6 trillion 930 milliard so'm hamda 471 million dollardan ortiq mablag' sarflanganligining o'zi amalga oshirgan ishlarimizning xajmi va ko'lami qanchalar keng va ulkan ekanidan yaqqol dalolat beradi”.²

2014 yil mamlakatimizda “Sog'lom bola yili” deb e'lon qilindi. Yurtboshimizning 2014 yil 19 fevralida “Sog'lom bola yili” Davlat Dasturi to'g'risidagi qarori qabul qilindi.

Davlat dasturi 7 ta bo'lim, 125 ta banddan iborat bo'lib,uning barcha bandlari to'la bajarildi va katta mablag' sarflandi.

¹ Muhammadaminov M. Davlat dasturining ijrosi: Obod turmushning huquqiy asoslari yanada mustahkamlandi. Inson va qonun.2013 y. 16 aprel

² Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish-yorug' kelajagimizning omilidir. Xalq so'zi. 2013 y 7 dekabr

Dasturni amalga oshirish maqsadida sarflangan mablag' 4 trillion 795 milliard so'm va 260 million AQSh dollaridan ziyod mablag'ni tashkil etganligini Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida faxr bilan ta'kidladi.¹

2015 yil yurtboshimizning tashabbusi bilan "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilindi. Keksalarni xurmat qilish, ularga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish jamiyatimizning o'ziga xos yuksak ma'naviy va madaniy belgisidir. O'zbek xalqiga azaldan xos bo'lgan bunday yuksak fazilatlar istiqlolimizning dastlabki yillaridan mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

"Keksalarni e'zozlash yili" davlat dasturi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 2015 yil 18 fevralda qabul qilindi.

Davlat dasturi bo'yicha keksalarga g'amxo'rlik ko'rsatish va e'tiborni kuchaytirish, ularning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, yoshi ulug' insonlarga davlat xizmatlari, shu jumladan, turli ma'lumotnoma va tasdiqlovchi hujjatlarni olish xizmatlari ko'rsatishning eng qulay tizimini shakllantirish va boshqa tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.²

Buning uchun davlatimiz tomonidan katta mablag' ajratilgan.

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirish- Bosh maqsadimiz. Xalq so'zi 2014 y.6 dekabr

² Karimov I.A "Keksalarni e'zozlash yili" davlat dasturi to'g'risidagi qarori. Xalq so'zi.2015 yil 19 fevral

1.2 O`zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining shakllanishi

O`zbekistonda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab “Inson-bosh qadriyat”, “Inson manfaati-hamma narsadan ustun”, “Islohat islohat uchun emas, islohat inson uchun”, “Dunyoviy ne`matlar ichida eng ulug`i insondir” degan tamoyillarga amal qilinib kelinmoqda. Shu boisdan, iqtisod va davlat boshqaruvini o`zgartirishga, yangilanishiga qaratilgan islohotlar jarayonida xalqni ijtimoiy himoyalash, izchil va kuchli ijtimoiy siyosat olib borish-taraqqiyotimizning oltin qoidalaridan biri darajasiga ko`tarildi.

Aholini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirishga bag`ishlangan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1994 yil 24 avgustdagi “Kam ta`minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to`g`risida”gi, 2007 yil 19 martdagi “Aholini ijtimoiy himoyalash tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to`g`risida”gi farmonlari muhim ahamiyatga ega bo`ldi.¹

O`zbekistonda islohotlar boshlangan dastlabki yillardayoq, kuchli ijtimoiy himoya tizimini yaratishdan maqsad, insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat, deb belgilangan edi. Mamlakat prezidenti I.A.Karimov ta`kidlaganidek: “O`zbekistonning o`z yangilanish va taraqqiyot yo`liga asos bo`lgan eng muhim qoidalarda biri bozor iqtisodiyotiga o`tishni barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosatni o`tkazishdir”.²

Albatta ijtimoiy himoya tizimining rivoji mamlakat iqtisodiyotining ahvoliga to`g`ridan-to`g`ri bog`liqdir. Avvalo, nodavlat sektorining muayyan darajada taraqqiy etishi, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar mavqeining mustahkamlanishi iqtisodiy rivojlanish uchun tayanch va asosiy manba bo`lib xizmat qiladi. Bu esa o`z navbatida, ijtimoiy siyosatning real amalga oshishi uchun zamin yaratadi, ijtimoiy himoya tizimining yanada takomillashib, zamon talabiga mos bo`lib

¹ O`zbekiston respublikasi prezidentining farmonlari. Xalq so`zi. 1994 yil 25 may, 2007 yil 20 mart

² I.A.Karimov. O`zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. “O`zbekiston” 1996y. 322 bet

borishiga olib keladi. Bu hol O'zbekiston ijtimoiy siyosatining tadrijiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, ijtimoiy himoyaning davlat siyosatidagi o'rni g'oyat muhimdir. Buning bir qancha sabablari bor.

Birinchidan, O'zbekiston agrar mamlakat bo'lib, uning ko'pgina hududlarida ishlab chiqarishning texnologiyalashuvi endigina oyoqqa turmoqda.

Ikkinchidan, mamlakat aholisining 65 foizi qishloqda yashaydi. Agrar sohaning yaxshi rivojlanmaganligi aholining bu qismi orasida himoyaga muhtoj oilalarning ko'pligiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ularni ijtimoiy himoyalash vazifasini qo'yadi.

Uchinchidan, mamlakat aholisi orasida yoshlar katta salmoqqa ega, bu esa yoshlarni ijtimoiy himoya tizimi orqali muhofaza qilishni talab etadi.

Ijtimoiy adolatning mohiyati har bir shaxs o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon qila olishi uchun to'liq imkoniyatlar yaratish, bunda ularning farovon turmush kechirishlariga erishish jarayonida to'liq namoyon bo'ladi.

Albatta, inson faqat non bilan tirik emas. Inson taraqqiyotini hayot darajasida emas, hayot sifati ham belgilaydi. Hayot sifati esa inson yashaydigan, mehnat qiladigan va bo'sh vaqtini o'tkazadigan sohalarda shakllanadi.

2003yil Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bajarilishi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari moddiy texnika bazasini mablag' bilan ta'minlash va rivojlantirish Dasturi doirasida 133,9 mlrd, so'm mablag' sarflanib, 5,2 ming o'quvchiga mo'ljallangan o'nlab akademik litseylar, o'quvchilarga mo'ljallangan yotoqxonalar, 86,6 ming o'quvchiga mo'ljallangan 114 ta kasb-hunar kollejlari qurildi. Bugungi kunda ularda yoshlar ta'lim va tarbiya olishmoqda.¹

Insonlarning jamiyatga foyda keltirishi ko'p jihatdan uning hayoti qanday ta'minlanganligiga bog'liq. Dastavval har bir oila o'z turar joyiga ega bo'lishi kerak. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, qishloq joylarini gazlashtirish kabi murakkab muammolarni hal qilib borilishi ham insonga munosib hayotni ta'minlashga qaratilgandir.

¹ Ergashev va boshqalar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. T. "Akademiya", 2005 y. 311-312 betlar

O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot asosan davlat budjeti hisobidan tashkil etilgan bo'lib, bu tizim qator rivojlangan chet el davlatlarining ijtimoiy tizimidan qolishmaydi.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy yordamdan tashqari respublikamizda norasmiy ijtimoiy yordam ko'rsatishning an'anaviy qadriyat turlari ham mavjudki, ularning negizini qarindoshchilik, qo'shnichilik, mahallachilik, yoru birodarchilik yordamlari, ya'ni xalqimizning milliy urf-odatlari tashkil etadi.

Shuni aytib o'tish zarurki, har qanday jamiyat ijtimoiy muxofaza tizimida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng oradan o'n uch yil o'tdi. O'zbekistonda nafaqat moddiy farovonlik, jamiyatning demokratlashuvi kabi muhim jarayonlar kuchli ijtimoiy himoya tizimi mexanizmi yaratilgan taqdirdagina ma'no-mazmunga ega bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyatda asosiy boylik inson bo'lib qoladi. O'tkazilayotgan islohotlarning mazmuni ham shu bilan bog'liq. Bu haqda Prezident I.A.Karimov shunday ta'kidlaydi. "Bizning asosiy boyligimiz, rivojlangan davlat tuzishga olib boradigan yo'ldagi asosiy tayanchimiz insondir. Yuksak malakali va yuksak ma'naviyatli insondir".

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, O'zbekistonda islohotlar muqarrarligining g'oyat muhim sharti bo'lmish aholini ijtimoiy himoya qilish uzluksiz ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bu holat, o'z navbatida, quyidagi omillarni belgilab beradi:

- Kuchli ijtimoiy himoya siyosati istiqbol va taraqqiyot yo'liga ishonchni mustahkamlaydi, bu ishonch esa aniq moddiy zamin asosida hosil bo'ladi;
- Kuchli ijtimoiy himoya siyosati fuqarolarning islohotlarning izchil kechishidan manfaatdorligini oshib borishini ta'minlaydi va bu yangilanish jarayonining orqaga qaytishiga imkon bermaydigan ijtimoiy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda aholining kam ta'minlangan tabaqalariga, bolalar, qariyalar, nogironlarni, shuningdek sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat va san'at sohalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kuchli ijtimoiy himoya siyosati o'zining

muayyan tajribalariga ega bo`ladi.

Kuchli ijtimoiy himoyalash siyosati jamiyatda yangicha fikrlash asoslarini yaratishga qodirligidan ham demokratik jamiyat barpo etishga ko`maklashadi. Zero, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik yuzaga kelgach, fuqarolar fikrlashga, yangi zamon tartiblarini tuzishga ishtiyoq bilan intiladilar. Chunki fikrlovchi odam fukarolik jamiyatiga ta'sir o'tkazish qobiliyatini mumkin qadar ko`proq ro'yobga chiqara olgan taqdirdagina, kuchli bo`la oladi.¹

Mehr-muruvvat, insonparvarlik g'oyalari, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini anglamay turib, davlatimiz ijtimoiy siyosatining keng qamrovli ko`lamini tushunish qiyin. Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridan biri "demografiya sohasidagi real ahloqiy, aholining mavjud turmush darajasini hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda fuqarolarni ijtimoiy himoyalash sohasida aniq, kuchli chora-tadbirlarni oldindan amalga oshirish"² hisoblanadi.

Davlat ijtimoiy siyosatida aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo`nalishlari quyidagilardan iborat;

- davlat ijtimoiy iste'mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a'zosi foydalanishini kafolatlaydigan qonunlar qabul qilish;
- davlatning markazlashgan ijtimoiy sug'urta fondini tashkil etish;
- ish haqi va nafaqa minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi;
- ko`p bolali oilalarga to`lanadigan nafaqalar;
- kam ta'minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko`rsatish;
- bolalikdan nogiron bo`lgan va mexnat qobiliyatini yo`qotgan boshqa shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;
- talabalar uchun to`lanadigan davlat stipendiyalari;
- ishsizlik nafaqasi;
- ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari (sog'liqni saqlash, ta'lim, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasini qo'llab-quvvatlash va

¹ Ergashev va boshqalar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. T. "Akademiya", 2005 y. 32 bet

² Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. "O'zbekiston", 1998. 181 bet

mustahkamlash.

Ta'kidlash joizki, davlat budjeti xarajatlarida ijtimoiy-madaniy, aholini ijtimoiy himoya qilish tadbirlariga ajratilgan harajatlar ulushi 1997 yildagi 44,7% dan 2006 yilda 51% ga o'sgan, 2011 yilda 60 % ni tashkil etdi.¹

Mamlakatimizda kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalashning amaldagi tizimi;

- birinchidan, oilaga, ayniqsa, ko'p bolali oilalarga qaratilgan aniq manzilli yo'nalishga ega;
- ikkinchidan, barcha muhtoj oilalarni moddiy himoyalaydi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga pul nafaqalari tayinlash va ularni berish borasida davlat yordamini amalga oshirish 1994 yil oktabr oyidan boshlab mahalla orqali amalga oshiriladi.

1997 yil 1 yanvardan boshlab fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga oilalarning muhtojlik darajasini aniqlash, uni hisobga olish hamda bolali oilalarga nafaqalar belgilash va ularni berish vazifalari topshirildi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq boshlab bergan boshqaruv vazifalarini markazdan qo'yi boshqaruv idoralariga o'tkazish tamoyili amalda o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatib kelmoqda.

Mamlakatimizda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, xususan, mahallalarga keng imqoniyatlar yaratilgan va ular faoliyatiga alohida e'tibor berilmoqda. Mahallalar aholini ijtimoiy-siyosiy hayotga keng jalb etish, ular o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni olib borish, oilalarning osoyishtaligini saqlash, iqtisodiy nochor oilalarga va nogironlarga moddiy yordam berish, ularning ahvolidan doimo xabardor bo'lish, xududlarning ozoda va ko'kalamligini ta'minlash kabi fuqarolik institutiga xos bir qator tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Davlatimiz va jamiyatimiz rivojlanishining ilk bosqichidayoq aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash borasida bir qator chora-tadbirlar o'tkazilganligini, faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

¹ Abdulqosimov H. Davlat siyosati: inson manfaatlari va ijtimoiy himoya. Fuqarolik jamiyati. 2007 yil 1 son. 17 bet

Xalqimizning asriy anʼanalari, milliy, maʼnaviy-ahloqiy qadriyatlari va turmush tarziga xos xususiyatlarini eʼtiborga olgan holda yurtimizda 1994 yilning oxirlaridan boshlab aholini ijtimoiy himoyalashning yangi, ilgʻor tizimi shakllantirildi.

1994 yil 23 avgustda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Kam taʼminlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoni eʼlon qilindi. Shu sananing oʻzida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kam taʼminlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish masalalari toʻgʻrisida”gi Qarori qabul qilindi. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda mahallaning roli va masʼuliyatini yanada kuchaytirish maqsadida 1996 yil 10 dekabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan 1997 yilning 1 yanvaridan boshlab 16 yoshgacha bolalari boʻlgan oilalarga nafaqalar joylardagi fuqarolar yigʻini xulosasi bilan tayinlanadigan boʻldi.

Davlatimiz rahbarining 1999 yil 13 yanvardagi “Aholini aniq yoʻnaltirilgan ajtimoiy madad bilan taʼminlashda fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari rolini oshirish toʻgʻrisida”gi Farmoniga asosan ishlamaydigan onalarga farzandi ikki yoshga etgunga qadar uni parvarishlash uchun nafaqa toʻlash va tayinlash, oʻzgalar parvarishiga muhtoj boʻlgan keksalarni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlash ishlari fuqarolar yigʻinlari orqali amalga oshirilishi belgilandi.

Prezidentimizning 2002 yil 25 yanvardagi “Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yoʻnaltirilgan tarzda qoʻllab-quvvatlashni kuchaytirish toʻgʻrisida”gi Farmoniga koʻra, bolasi ikki yoshga toʻlgunicha uni parvarish qilish boʻyicha ishlamaydigan onalarga mahallalar orqali beriladigan oylik nafaqalar miqdori 2002 yilning 1 fevralidan eʼtiboran eng kam ish haqining 170 foizi, 2003 yilning 1 yanvaridan boshlab esa 200 foizi miqdorida belgilandi. Shuningdek, 16 yoshgacha bolalari boʻlgan nafaqa oluvchi oilalar toifasi kengaytirilib, umumtaʼlim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda oʻqiydigan 18 yoshgacha bolalari boʻlgan muhtoj oilalar ham shu toifaga qoʻshimcha ravishda kiritildi.

Aholini ijtimoiy himoyalashni yanada kuchaytirishga qaratilgan Oʻzbekiston

respublikasi prezidentining farmonlarida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rioya etishi lozim bo'lgan asosiy tamoyillar yanada takomillashtirildi. Bu avvalambor ijtimoiy adaolat, xolislik va oshkoralik tamoyillariga qat'iy amal qilish moddiy yordamni haqiqiy ehtiyojmand oilalarga berish, ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishdan iborat.¹

Yurtboshimizning mazkur sohaga taaluqli farmonlarining amalga oshirilishi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada kuchaytirmoqda, qo'shimcha ijtimoiy himoya choralariga muhtoj kam ta'minlangan oilalar va fuqarolarning farovonligini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston respublikasi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Xaqiqatan ham qariyb yigirma yillik mustaqil taraqqiyotimiz maboynida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga xisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani e'tiborga sazovordir.

Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar sohada erishilgan marralar- aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlarining 5 barobar ko'paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida onalar o'limi 2 barobardan ko'proq, bolalar o'limi 3 barobar kamaygani, odamlarning o'rtacha umr ko'rish 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan ayollarning o'rtacha umr ko'rish 75 yoshga etganini mamnuniyat bilan ta'kidlasak arziydi deb o'ylayman".²

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning 5 tamoyilidan bittasi kuchli ijtimoiy siyosat tamoyilidir, yurtimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti barpo etilmoqda. Prezident I.A.Karimov o'zining barcha ma'ruza, intervyu, muloqotlarida har doim aholini ijtimoiy himoya qilishga e'tibor bermoqda. Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va mustahkam tizimi yaratilgan.

Aholi ijtimoiy muhofazasi bu- mamlakatimizda olib borilayotgan ko'p qirrali ustuvor yo'nalishlarning asosini tashkil etib, xalqimizning to'laqonli hayot

¹ O'zbekiston respublikasi prezidentining "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga sharh. Adolat. 2007 yil 23 mart

² Karimov I.A Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. Xalq so'zi. 2010 y. 13noyabr

kechirishi va faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan.

Respublikamiz prezidenti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 16 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida shunday degan edi. "Barchamizga ma'lumki, dunyoda "O'zbek modeli" degan nom bilan tan olingan mustaqil taraqqiyot yo'limizning negizida turgan mashhur besh tamoyildan biri kuchli ijtimoiy siyosat olib borishdan iboratdir".¹

1997-2015 yillarda mamlakatimizda har bir yil quyidagicha nomlandi.

- 1997 yil – "Inson manfaatlari yili"
- 1998 yil – "Oila yili"
- 1999 yil – "Ayollar yili"
- 2000 yil – "Sog'lom avlod yili"
- 2001 yil – "Ona va bola yili"
- 2002 yil – "Qariyalarni qadrlash yili"
- 2003 yil – "Obod mahalla yili"
- 2004 yil – "Mehr va muruvvat yili"
- 2005 yil – "Sihat-salomatlik yili"
- 2006 yil – "Homiylar va shifokorlar yili"
- 2007 yil – "Ijtimoiy himoya yili"
- 2008 yil – "Yoshlar yili"
- 2009 yil – "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili"
- 2010 yil – "Barkamol avlod yili"
- 2011 yil – "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili"
- 2012 yil – "Mustahkam oila yili"
- 2013 yil – "Obod turmush yili"
- 2014 yil – "Sog'lom bola yili"
- 2015 yil – "Keksalarni e'zozlash yili".

Ijtimoiy himoyaning asosiy yo'nalishlari.

- Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish;

¹ Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz-yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. T. "O'zbekiston" 2008 y 6bet

- Ishlamaydigan onalarga bolasi ikki yoshga etgunga qadar uni parvarish qilish bo'yicha ijtimoiy himoya;
- Ishlayotgan onalarga bolasi ikki yoshga to'lgungacha parvarish qilish bo'yicha ijtimoiy himoya;
- O'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz pensionerlarni ijtimoiy himoyalash;
- Bolalari 16 yoshgacha bo'lgan onalarni ijtimoiy himoyalash;
- Yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni davolash-profilaktika xizmati bilan qamrab olish;
- "Sahovat" va "Muruvvat" uylari, sanatoriylarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishni yanada kuchaytirish bo'yicha aniq maqsadlarga yo'naltirilgan chora-tadbirlar kompleksi amalga oshirilmoqda. Jamiyatda ezgulik, mehr-muruvvat va hamjihatlik, tinchlik va osoyishtalik muhitini mustahkamlash maqsadida 1997 yildan buyon har bir yil o'ziga xos nom bilan atalib, 19 ta ijtimoiy dastrular qabul qilindi. Bu dasturlar bir yillik emas, uzoq muddatlarga mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi.

Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, - "Qaysi yilga qanday nom berishdan qat'i nazar- bu oila yoki ayollar masalasi bo'ladimi, sog'lom avlod tarbiyasi, mahallalarimizni obod qilish yoki qariyalarni qadrlash bo'ladimi, onalik va bolalikni muhofaza etish yoki jamiyatimizda mehr-muruvvat, insonparvarlik ruhini kuchaytirish bo'ladimi- bularning barchasini birlashtiradigan umumiy bir mezon bor. U ham bo'lsa, inson, uning hayoti, orzu niyatlari, dardu tashvishlarini e'tiborimiz markaziga qo'yib, odamlarning og'irini engil qilishga qaratilgan intilishlarimiz misolida yaqqol namoyon bo'lmoqda".¹

Davlat ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda kasaba uyushmalari boshqa jamaot birlashmalari bilan hamkorlikda faol ishtirok etmoqda.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, - "Ijtimoiy himoya masalasi- faqat davlat va

¹ Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish-ustuvor vazifamizdir. T. "O'zbekiston", 2006 y. 10 bet

hokimiyat tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot va xayriya muassasalarining ishi bo'lib qolmasligi lozim. "Ijtimoiy" degan so'zning ko'pchilikka jamoatchilikka mansub degan ma'noni ifoda etishini inobatga oladigan bo'lsak, bu o'ta muhim masala jamiyatimizning, barchamizning burchimizga aylanishi darkor".

"Kishilarni ijtimoiy himoyalash va uni kafolatlashning kuchli, ta'sirchan mexanizmi bo'lgandagina bozor iqtisodiyotiga sobitqadamlik bilan o'tishni ta'minlash, tarikbiy qayta qurishni amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni saqlagan holda ishlab chiqarish munosabatlarini tubdan isloh qilish mumkin", deydi I.Karimov.¹

"Davlat o'z aholisini ijtimoiy himoya qilgan taqdirdagina insonparvar hisoblanadi", degan edi I.Karimov.

Fuqarolarga har tomonlama g'amxo'rlik qilgan davlatgina odamlar mexrini qozonadi. Bu g'amxo'rlikni birinchi navbatda mamlakatda osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq.

¹ Karimov I.A. Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish- oliy saodatdir. T. "O'zbekiston" 2007y. 12 bet

II. Bob. Aholining ehtiyojmand qismini ijtimoiy muhofaza qilish-davlat siyosatining ustuvor yo`nalishi.

2.1 Keksalar va nogironlarni ijtimoiy qo`llab quvvatlash-ustuvor vazifa.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab yurtimizda yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo`nalishiga aylandi.

Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 7 dekabrda 520 sonli qarori bilan tasdiqlangan 2000-2005 yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muxofaza qilishni kuchaytirish chora-tadbirlari Dasturi doirasida jamiyatning ushbu muammoga e'tiborini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ro'yobga chiqarildi, yolg'iz keksa fuqarolarni aniq ijtimoiy muxofaza qilish va qo`llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlarni olib borishda davlat muassasalari bilan jamoat tashkilotlari o'rtasida ijtimoiy sheriklik mustahkamlandi va kengaydi.

Xalqimizning qonida, tabiatida mavjud azaliy ezgu fazilatlardan biri shuki, bu el o'z qariyalarini sidqidildan e'zozlaydi, ularni "Piru badavlatlarimiz" deb boshga ko'taradi.

Cheksiz mamnuniyat bilan shuni ta'kidlaymizki, xalqimizning o'z qariyalariga mana shunday yuksak insoniy yondashuvi Prezidentimiz rahnomoligida mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosatining eng ustuvor yo`nalishlaridan biri darajasiga ko'tarilgan.

Keksalarga mexr-muruvvat ko'rsatish, ularga moddiy yordam berish, salomatliklarini tiklash borasida mamlakatimizda keng ko'lamli savobli ishlar

amalg oshirilmoqda, davlatimiz tomonidan yangidan-yangi chora-tadbirlar ko`rilmoqda.

Jahon miqyosida davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida juda ko`p davlatlarda aholining turli qatlamlari, jumladan, pensionerlar ham uning og`ir ta`sirini o`z taqdirlarida yaqqol his etayotgan bir paytda mamlakatimiz iqtisodiyotida hamda xalqimizning turmush farovonligida barqaror yuksalmoqda. Jumladan, keksa avlod vakillarining pensiyalari va turli nafaqalar miqdori bozor iqtisodiyoti davri talab-ehtiyojlariga mos ravishda bosqichma-bosqich oshib borilishi ham buning bir dalilidir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2007 yil 17 sentabrdagi “Pensionarlarni ijtimoiy qo`llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi ¹farmoniga asosan pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan ish haqining maksimal miqdori eng kam ish haqining etti karrasidan, sakkiz karrasigacha oshirildi.

O`zbekiston Respublikasining “fuqarolarning jamg`arib boriladigan pensiya ta`minoti to`g`risida”gi qonuni qabul qilinishi farovon keksalik kafolatini ta`minlashda muhim rol o`ynamoqda.

Dunyodagi kamdan-kam davlatlar qatorida bugungi kunda davlatimiz pensiyaga ajratadigan mablag`ning miqdori o`rtacha oylikning 41 foizdan ziyodini tashkil etishi ham shundan dolalat beradi.

Eng muhimi, keksalar e`zozlangan yurtda mehr-oqibat, qut-baraka, tinchlik-xotirjamlik bo`ladi. Shu ma`noda, qariyalarga chuqur hurmat-ehtirom ko`rsatish, ularning farovon hayot kechirishi, salomatligini mustahkamlash uchun keng sharoit va imkoniyatlar yaratish mustaqillik yillarida Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarning ustuvor yo`nalishlaridan biriga aylangani bejiz emas.

Bu haqda so`z borganda, avvalambor, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida keksalarni e`zozlashning xuquqiy asoslari mustahkam

¹ Karimov I.A. “Pensionerlarni ijtimoiy-qo`llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi farmoni. Xalq so`zi. 2007 yil. 18 sentabr

kafolatlanganini ta'kidlash joiz. Konstitutsiyamizning 39 moddasida belgilanganidek, "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish xuquqiga ega". Asosiy Qonunimizning 66-moddasida esa: "Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburlar", degan norma mustahkamlangan.²

Ayniqsa, yurtimizda 2002 yil- "Qariyalarni qadrlash yili" deb e'lon qilinib, yoshi ulug' kishilarga xurmat va e'tibor yanada kuchaytirildi. Shuningdek, qator qonunlar, xukumat qarorlarida pensionerlar, urush qatnashchilari va nogironlarga tegishli imtiyozlar belgilab qo'yilgan.

Biron bir davlatning tajribasida va amaliyotida "Qariyalarni qadrlash yili" kabi ezgu insonparvarlik tadbirini uchratmaymiz. O'zbekistonda esa mamlakatimiz Prezidenti tashabbusi bilan 2002 yil aynan shunday nom bilan atalib, unga muvofiq, keng qamrovli Davlat dasturi qabul qilindi va uning ijrosi uchun davlat budjetidan hamda homiyilar hisobidan necha milliard so'mlab mablag'lar ajratildi. Xuddi shu yili qariyalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan bir qator qonunlar va hukumat qarorlari amaliyotga joriy etildi. Shuningdek, keksalarimizga tibbiy, sanatoriya-qurort, kommunal-maishiy va transport xizmatlari ko'rsatishni yanada yaxshilash bo'yicha davlat miqyosida ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ular doimo davlatimiz va xalqimiz e'tiborida. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish hamda Sog'liqni saqlash vazirliklarining xududiy bo'limlari bilan hamkorlikda keksalarimiz o'z vaqtida to'liq dispanser ko'rigidan o'tkazildi. Viloyat shifoxanalarida "Nuroniylar" jamg'armasining viloyat bo'limlari hamda mahalliy hokimliklarning amaliy yordami tufayli tashkil etilgan keksalarni va nogironlarni bepul davolovchi "Nuroniylar xonalari" faoliyat ko'rsatdi.

Shuningdek, mamlakatda 8 ming nafar yolg'iz pensioner va nogiron yashab turgan 30 dan ziyod Saxovat va Muruvvat uylarining moddiy-texnika bazasi so'nggi yillarda tubdan yaxshilandi. Bu uylarda qariyalarga madaniy-maishiy va

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" 2013 yil 10-13 betlar

tibbiy xizmat ko'rsatish eng zamonaviy darajalarda yo'lga qo'yilgan.¹

Bu yilga shunday nom berishdan asosiy maqsad-mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosati, qurilayotgan davlat tizimi, barpo etilayotgan yangi jamiyat, hayotimizda qaror topayotgan ezgu qadriyatlar zahirida, avvalo O'zbekistonning buyuk kelajagini o'ylab, yillar davomida shu oliyjanob ishga o'z hissasini qo'shgan, ana shu poydevorning tamal toshini qo'ygan insonlarni ulug'lash, ularni rozi qilishdek maqsad mujassamdir.

Pensiya ta'minoti taksimlashtirildi, keksalarga qo'shimcha imtiyozlar berildi. Ularga tibbiy, sanatoriy-kurort, kommunal-maishiy va transport xizmatlari ko'rstaishni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2006 yil 7 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "2007-2010 yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qildi.¹

Dasturga asosan, yolg'iz nogironlar va keksa fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi yanada takomillashtirildi, yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni davolash-profilaktika xizmati bilan kengroq qamrab olindi, uy-joy-maishiy sharoitlari yaxshilandi. "Sahovat" va "Muruvvat" uylari, sanatoriylarning moddiy- texnika bazasi mustahkamlandi, ijtimoiy xizmat ko'rstaishning yangi shakllari, usul va texnologiyalari tatbiq etildi.

Har qanday jamiyatning insonparvarligi keksalarga munosabatida namayon bo'ladi. Ularga oqibatli bo'lish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan fazilat. Bu fazilat bizda milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Qariyalarga izzat-ikrom ko'rsatish, ularni qadrlash borasida (2002 yilning qariyalarni qadrlash yili deb nomlanishi) mahallalar (2003 yil "Obod mahalla yili") bosh-qosh bo'lganligi, etim-esirlar, kam ta'minlangan oilalar. Boquvchisini yo'qotgan yolg'iz keksalar, nogironlarga mehr-muruvvat, (2004 yil) ko'rsatishda oila va mahallaning alohida

¹ Xalq so'zi. 2010 yil 1 oktabr

¹ Karimov I.A. "2007-2010 yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularni ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror. Xalq so'zi. 2006 yil 8 sentabr

o'zni, xalq salomatligiga (2005 yil) eng muhim ijtimoiy masala sifatida qarash jamiyat taraqqiyoti va mamlakat rivojini ta'minlovchi muhim omillardan.

Tabiat va hayot qonuniyati shundayki, bir kun kelib yoshlik ortda qoladi, keksalik eshik qoqadi. Mana shunday paytda otaxonu-onalarimiz, avvalo, odamlarning e'tibor va g'amxo'rliqi, mehr va muruvvati, e'zoziga qolaversa, davlat va jamiyat e'tibor va ko'magiga muhtoj bo'ladi..

Keksa fuqarolarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rstamoqda. Xalqimiz qariyalarni sidqidildan e'zozlaydi, ularni "Piru badavlatlarimiz" deb boshga ko'taradi.

Bu tabarruk insonlarga mehr-muruvvat ko'rsatish, ularga moddiy-ma'naviy yordam berish, salomatliklarini tiklash borasida mamlakatimizda keng ko'lamli savobli ishlar amalga oshirilmoqda, davlatimiz tomonidan yangidan-yangi chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Davlatimiz rahbari I.Karimovning 2011 yil 30 mayda qabul qilgan "2011-2015 yillarda yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorga asosan mamlakatimizda keksalarga e'tibor va g'amxo'rlik yanada kuchaytirilmoqda.¹

O'tgan davr maboynida ushbu Qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining joylardagi boshqarma va bo'limlari hamkorligida jami 33 ming nafar yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatildi. Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan 25 mingdan ortiq nafar yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlar uyida ijtimoiy xizmat ko'rsatish bilan qamrab olindi. O'zgalar parvarishiga muhtoj yakka-yolg'izlardan 5227 nafari budjet mablag'lari hisobidan va 9900 nafar yolg'iz fuqarolar homiylar mablag'i hisobidan bepul dori-darmon vositalari bilan ta'minlandi.

Maxsus komissiya xulosasiga ko'ra ta'mirlanishi zarur deb topilgan 2300 nafar yakka-yolg'izlarning uy-joylari ta'mirlab berildi va bu maqsadlar uchun 579 mln

¹ Karimov I.A. "2011-2015 yillarda yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror. Xalq so'zi. 2011 yil 31 may

so'm homiylar mablag'i sarflangan.

O'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 27 maydagi 212-sonli Farmoniga asosan yakka-yolg'iz, o'zgalar parvarishiga muhtoj pensioner va nogironlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yo'nalishida 7462 nafar yakka-yolg'iz pensionerlar har oy bepul 9 xil oziq-ovqat va kir yuvish vositalari bilan ta'minlanadilar. Bu maqsadga 1,7 mlrd so'm budjet mablag'i sarflanib kelinmoqda.

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash joizki, keksa yakka-yolg'iz pensionerlar, nogironlar, urush qatnashchilari va o'zgalar parvarishiga muhtoj kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari nodavlat jamoat tashkilotlarining doimiy e'tiborida bo'ldi.

2011 yilda "Sog'lom avlod uchun" xalqaro hayriya jamg'armasi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi, "Mahalla" jamg'armasi, "Kamolot" YoIH bilan hamkorlikda belgilangan qo'shma tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya jamg'armasi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar nihoyatda samarali bo'ldi.

2011 yilda nishonlangan "Vatan himoyachilari kuni", 8 mart- "Xotin-qizlar kuni", "Navro'z", "Xotira va qadrlash kuni", "Mustaqillik kuni", Muborak Ramazon xayti, Qurbon xayiti umumxalq bayramlari munosabati bilan "Nuroniy" jamg'armasi Markaziy Kengashi va uning xududiy bo'lim bo'linmalari tomonidan homiylar yordamiga tayangan holda faxriylarni ijtimoiy muxofaza etishni kuchaytirish maqsadida yil davomida 573 mln so'mlik moddiy yordam ko'rsatildi.

Qariyalar mamlakatimiz ijtimoiy hayotida faol ishtirok etmoqdalar, barkamol avlodni tarbiyalashga o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqdalar. Mahallalarda, o'quv muassasalarida, mehnat jamoalarida keksalar bilan yoshlar uchrashuvlari muntazam o'tkazilib turibdi. Ulardan yoshlar hayot va kasb tajribalarini o'rganmoqdalar.

Keksalarga "Mahalla", "Nuroniy" jamg'armalarining, "Kamolot yoshlar ijtimoiy xarakatining, xotin-qizlar qo'mitalari va boshqa jamoat tashkilotlarining

e'tibori va g'amxo'rliги ham katta bo'lmoqda.

Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari, "Kamolot" YoIH, "Mahalla" jamg'armasi, xotin-qizlar qo'mitasi va ularning joylardagi bo'lim hamda boshqarmalari bilan hamkorlikda 20 yil davomida erishilgan ulkan yutuqlarimiz mazmun-mohiyatini targ'ib qilish, yoshlarni keksalarning katta hayotiy tajribasi va salohiyatidan foydalangan holda tarbiyalash maqsadida "Faxriylar mehri-yosh avlodga", "Bobolar merosi-qadriyatlarimiz asosi" mavzularida ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi tadbirlar, faxriylarning bilim dargohlarida ikki avlod uchrashuvlari, davra suhbatlari, muloqotlari, seminar mashg'ulotlari, ma'naviy-ma'rifiy mavzulardagi tadbirlar o'tkazildi.

Faxriylarga ko'rsatilgan moddiy-ma'naviy yordamning ko'lamini ayniqsa 9 may "Xotira va qadrlash kuni" arafasida samarali bo'ldi. 1941-1945 yillardagi Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan G'alabaning 66 yilligini nishonlash munosabti bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 22 apreldagi Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi PF-4302-sonli Farmoniga asosan 8331 nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlari bir martalik 300 ming so'mlik pul mukofoti bilan rag'batlantirildi va ushbu maqsadlar uchun davlat budjeti mablag'lari hisobidan jami 2 milliard 500 million so'm sarflandi.

"Nuroni" jamg'armasi Markaziy Kengashi tashabbusi bilan "O'zpaxtasanoat", "Yog'-moy va oziq-ovqat sanoati" uyushmalari, "O'zdonmahsulot", "O'zvinosanoat-xolding" kompaniyalari, O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi tomonidan 356 mln so'mlik 7 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari, "Dori-darmon" aksionerlik kompaniyasi tomonidan 102 mln so'mlik 8800 dona aptechkalar urush qatnashchilari va front ortida mehnat qilgan faxriylar va yolg'iz keksalarning uylariga etkazib berildi.

Urush va mehnat faxriylarining sog'liqlarini yaxshilash, ularni tibbiy ko'rikdan o'tkazish ishlariga ham jiddiy e'tibor qaratilib, 484 mingdan ortiq keksalar, nogironlar va faxriylar tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Shifoxonalarda davolangan 8 ming nafar keksalarga Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi

tizimidagi sixatgohlar uchun yo'llanmalar ajratilgan, 12 ming nafar nogironlarga nogironlar aravachalari, turli tibbiy jihoz va protez-ortopedik moslamalar bilan ta'minlangan. 880 nafar faxriylarga ko'z gavhari o'rnatilgan.

“Nuroniylar” Respublika gerontologiya markazida 2011 yil davomida Respublikamizning turli xududlaridan kelgan 5176 nafar faxriylar sog'liqlari tiklangan.

“Nuroniylar” jamg'armasi Namangan viloyati qoshidagi Kosonsoy tumanidagi “Qadrlash” dam olish maskanida Respublikamizning turli mintaqalarida istiqomat qiluvchi 520 nafar faxriylarning dam olishlari tashkillashtirildi.¹

Prezidentimiz rahnamoligida nuroniylarimiz doimo yuksak darajalarda e'zozlanib, ularning turmushi va sog'lig'ini yaxshilash bo'yicha davlat miqyosida ko'rilyotgan chora-tadbirlarni takomillashtirib borishga muttasil ravishda katta diqqat-e'tibor ko'rsatib kelinmoqda.

Respublikamizda 800 ming nafardan ortiq nogiron yashaydi. Ba'zilarining jismoniy imkoni cheklangan, ayrimlari uyda o'tirib qolgan, shaxsiy avtomobili yo'q, ammo jamoat transportidan foydalana olmaydi.

Shunday kezlarda nogiron kishi kimnidir jismoniy ko'magiga muhtoj bo'lib qoladi. “Ijtimoiy taksi” esa mana shu vaziyatda unga beminnat tekin xizmat qiladi. “Toshshahartrans xizmati” uyushmasi bir qator ana shunday qulayliklarga ega transport vositalarini yo'nalishga chiqaryapti.

Biz bugun fuqarolik jamiyati barpo etayapmiz. Albatta bu jarayonda barcha fuqarolar birdek ishtirok etishi va ularning manfaati, haq-huquqi teng muhofaza qilinishi kerak.

Mamlakatimizda nogiron bolalar tug'ilishining oldini olish, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarni takomillashtirish, ularning faoliyatini kuchaytirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari Kontseptsiyada jamoatchilik nazaorati, ijtimoiy sheriklik haqida Qonun qabul qilish g'oyasini ilgari suradi. Bu esa tizim uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.²

¹ Nuroniylar 2012 yil 3 fevral

² Burxonov X. “Oydin hayotda o'rnimiz, obodlikda ulushimiz bor”. “O'zbekiston ovozi.” 2011 y 13 dekabr

O'zbekistonda qariyalar soni 1 mln 950 ming nogironlar 745 ming boquvchisini yo'qotganlar 230 ming, yakka yolg'izlar 30 ming nafarni tashkil etadi.

2008 yilda "O'zbekiston respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi.³

U sakkiz bob va o'ttiz olti moddadan iborat. Nogironlarni ijtimoiy himoyalashni takomillashtirish, ularning huquqlarini kengaytirish va ish beruvchilarning nogironlarni ish bilan ta'minlashda manfaatdorligini oshirish, Qonun normalarini O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar talablariga muvofiqlashtirish mazkur huquqiy hujjatning asosiy maqsadidir.

Yangi tahrirdagi Qonunda, avvalo "nogiron" tushunchasi kengroq talqin qilinib, u BMT tomonidan 2006 yilda qabul qilingan Nogironlarning huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalariga moslashtirilmoqda.

Shuningdek, BMT tomonidan 1989 yil 20 noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq, nogiron bolalar uchun nazarda tutilgan ijtimoiy imtiyozlar va kafolatlarning aniq yo'naltirilganligi, boshqacha qilib aytganda, manzilliligini kuchaytirish maqsadida Qonunga "nogiron bolalar" tushunchasi kiritilmoqda.

Yangi tahrirdagi Qonunda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining nogironlarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi vakolatlari yanada aniqroq bayon etilmoqda. Xokimiyat organlari, avvalo nogironlarni ijtimoiy himoya qilish sohasida davlat siyosatini shakllantiradi, amalga oshiradi va bu boradagi ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi. Bular qatorida davlat dasturlarining, qonuniy hujjatlarning ijrosini ta'minlaydi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining nogironlar huquqlarini ta'minlash hamda ularni ijtimoiy himoya qilishda ishtirok etish shakllari ham batafsil bayon etilmoqda.¹

Respublika ixtisoslashtirilgan markazlari tomonidan davlat mablag'lari

³ O'zbekiston respublikasining nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonun (yangi tahrir). Xalq so'zi. 2008 y. 18 iyun

¹ Xidirov Q. Ijtimoiy himoya va qonunchilik. Xalq so'zi. 2008y. 18 iyun

hisobidan tibbiy yordam ko'rsatiladigan imtiyozli toifadagi shaxslar ro'yxati tasdiqlangan bo'lib, bular quyidagilardan iborat:

1. Bolalikdan nogironlar
2. Chin etimlar
3. 1 va 2-guruh nogironlari
4. 1941-1945 yillarda urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek, ularga tenglashtirilgan shaxslar.
5. Yoshga doir pensiyaga chiqqan ishlamaydigan shaxslar.
6. 1941-1945 yillarda urush davrida front ortidagi mehnat jabhasining qatnashchilari
7. Baynalminalchi jangchilar

Nogironlarni malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqlari ular tug'ilganlaridan boshlab vujudga keluvchi birlamchi huquq hisoblanadi.

Prezidentimiz, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek- "Har qanday jamiyatning yoshi ulug' odamlarga bo'lgan e'tibori va g'amxo'rligi uning madaniy darajasini belgilaydi, keksalarga hurmat-ehtirom, mehr-oqibat ko'rsatish ma'naviy hayotimizning tom ma'noda ajralmas qismiga aylangan".¹

"Qarisi bor uyning parisi bor", "Qariyalar-xonadonimizning fayzi va farishtasi" degan maqol va xikmatli so'zlarda chuqur ma'no-mazmun bor.

Haqiqatdan ham, qaysi xonadonda nuroniy otaxon yoki onaxon bo'lsa, bu oilada, albatta, fayzu baraka, farovonlik, ahillik bo'ladi.

"Shu bois bugun turli sohalarda erishayotgan yutuqlarimizda ota-onalarimiz, mo''tabar qariyalarimizning unitilmas va ulkan xizmati borligini, biz ular oldida umrbod qarzdor ekanimizni unutmasligimiz, qo'limizdan kelganicha ularning og'irini engil, umrini uzoq qismini o'zimizning insoniy burchimiz, deb bilishimiz lozim",-degan edi yurtboshimiz.²

Vatanimizning musaffo osmonini asrashda, har qanday ofatlarni ostonamizga

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirishsh- bosh maqsadimizdir. Xalq so'zi. 2014 yil 6 dekabr

² O'sha joyda

yoʻlatmaslik, ona-yurtimizni fashizm balosidan himoya qilishda keksa avlod vakillarining qanday jasorat koʻrsatgani, front ortida mehnat qilib, gʻalabaga munosib hissa qoʻshgani, mamlakatimizni tiklash, uning ham harbiy, ham iqtisodiy, ham madaniy-maʼrifiy salohiyatini oshirishda nuroniy keksalarimiz namoyon etgan fidoyilikni xalqimiz hamisha katta minnatdorlik bilan eslaydi.

Mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning samarasi xalqimizning turmush farovonligi va hayot darajasining yuksalib borayotganligida yaqqol koʻrinib turibdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 60 yoshdan oshganlar soni 2 million 873 mingdan koʻproq kishini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida xalqimizning oʻrtacha yoshi 1990 yildagi 67 yoshdan 73,5 yoshga, ayollar oʻrtasida esa 75,8 yoshga etdi.

Xozirda respublikamizda 225 ming nafar 80 yoshdan, 44 ming nafar 90 yoshdan, 8 ming 700 nafar 100 yoshdan oshgan tabarruk qariyalar yashamoqda. Ular orasida 3 ming 109 nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, 69 ming 994 nafar front ostida mehnat qilgan insonlar bor.

Bu avvalo, istiqlol yillarida xalqimizning turmush darajasi va sifati tobora ortib borayotganidan, yoshi ulugʻ odamlarimiz yaxshi niyat, ertangi kunimizga katta umid bilan yashayotganidan, ularning qalbi sofligidan dalolat beradi.

Xonadonlarimiz koʻrki boʻlgan piri badavlat keksalarimizni har tomonlama qadrlash maqsadida mamlakatimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. 2014 yilda ularga davlat budjeti hisobidan 11 trillion 618 milliard soʻmdan ortiq pensiya, 105 milliard soʻmdan ziyod nafaqalar toʻlangani buning amaliy tasdigʻidir.

Shuni ham taʼkidlash joizki, mamlakatimizda 1999 yildan boshlab 9 mayni-Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlash anʼanaga aylandi. Endilikda har bir yurtdoshimiz “xotira va qadrlash” deganda bugun hayot boʻlgan urush qatnashchilarini qadrlash, keksalarimizni asrab-avaylash va ogʻirini engil qilishni nazarda tutadi.

Ushbu bayram sharofati bilan keksa otaxonu onaxonlarimiz xalqimiz eʼzozida boʻlib, moddiy va maʼnaviy jihatdan muntazam qoʻllab-quvvatlab kelinmoqda. Xotra va qadrlash kuni xalqimizning tiynatiga yarashgulik bayramga aylandi. Nega

deganda, bu kun tarixning og'ir sinovlarini boshdan kechirgan, fidokorona mehnat qilgan tabarruk yoshdagi otaxon, onaxonlarimizga hurmat va ehtirom ko'rsatish ayyomidir. "Qadr ko'rsatgan qadr topadi", deydi xalqimiz.

Qadrlash-o'zlikni anglash demakdir. Ushbu so'z zahirida imon butligi, odob-ahloq, ajdodlar merosi, shuningdek atrofimizdagi insonlarga chuqur hurmat mujassam. Bu tushunchaga Yurtboshimiz: "Men qadrlash deganda, avvalo bizga bor mehru muhabbatini bag'ishlagan, oq yuvib-oq taragan, kiyintirgan, tarbiya qilgan ota-onalarimiz, boboyu momolarimizga ular tirik bo'lgan paytda katta boyligimiz, baxtimiz sifatida qarashimizni hohlardim", deya juda aniq va samimiy ta'rif bergan.

Bu borada 2014 yil 13 oktabrda qabul qilingan "1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoniga asosan ularni ijtimoiy himoyalash, xususan yilda bir marta o'zlari uchun maqbul muddatlarda sanatoriy-sog'lomlashtirish muassasalarida davlat hisobidan davolanish imkoni yaratildi.¹

Ayni vaqtda keksa avlod vakillariga nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy tuzilmalar tomonidan ham moddiy va ma'naviy ko'mak berilayotgani va bunday yordamning miqyosi kengayib borayotgani e'tiborga sazovar. Xususan, 2013 yilda Nuroniy jamg'armasi tomonidan shu maqsadda 610 mln so'm, "Mahalla" xayriya jamoat fondi tomonidan 2013 yilda 1 mlrd 597 million so'mdan ziyod yordam ko'rsatilgani ham bunga misol bo'la oladi.

Davlatimizning ushbu sa'y-harakatlari zahirida insonga bo'lgan yuksak ehtirom va samimiy insonparvarlik tamoyili mujassam.

Yurtboshimizning tashabbuslari bilan 2015 yilning "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilinishidan asosiy maqsad keksa avlodga g'amxo'rlik va e'tiborni yanada kuchaytirishdan iborat.

2015 yil 18 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Keksalarni e'zozlash yili" davlat dasturi to'g'risidagi qarori qabul qilindi.²

¹ Karimov I.A. "1941-1945 yillarda urush va mehnat fronti faxriylarini ijtimoiy-qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. Xalq so'zi. 2014 yil 14 sentabr

² Karimov I.A. "Keksalarni e'zozlash yili" davlat dasturi to'g'risidagi qaror.. Xalq so'zi. 2015 y. 19 fevral

Keksalarni hurmat qilish, ularga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish jamiyatimizning o'ziga xos yuksak ma'naviy va madaniy belgisidir. O'zbek xalqiga azaldan xos bo'lgan bunday yuksak fazilatlar istiqbolimizning dastlabki yillaridan mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiyotni isloh etish va yangilash bo'yicha besh tamoyilga asoslangan taraqqiyotining "o'zbek modeli" mamlakatimiz istiqbolini tubdan o'zgartirish yo'nalishlarini belgilab berdi.

Davlatimiz rahbarining 2007 yil 19 martda qabul qilingan "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni va 2011 yil 30 maydagi "2011-2015 yillarda yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha aniq yo'nalish hamda vazifalar belgilab berilgan.

Ijtimoiy sohaning izchil takomillashtirilib borilayotgani O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganidan yorqin dalolat beradi. Iqtisodiyotimizning jadal va barqaror rivojlantirilayotgani aholi turmush darajasi va sifatini muttasil oshirishga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda yoshi ulug' insonlarning munosib hayot kechirishi uchun barcha sharoit yaratilmoqda. Zero ular yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, Vatanimizning iqtisodiy salohiyati yuksalishiga katta hissa qo'shgan.

Joriy yilda ham ijtimoiy sohani rivojlantirish, yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni, kam ta'minlangan oilalarni manzilli ijtimoiy himoya qilish borasidagi ishlar ko'lami yanada kengaymoqda. Prezidentimizning 2014 yil 13 oktabrdagi "1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va 2015 yilning mamlakatimizda "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilinishi ushbu

yo`nalishda yangi tashabbuslarni boshlab berdi.

Davlatimiz rahbarining shu yil 18 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan “Keksalarni e’zozlash yili” Davlat dasturida joriy yilda amalga oshiriladigan xayrli ishlar belgilab berilgan.

Olti bo`limdan iborat ushbu dasturda keksalarga g’amxo`rlik ko`rsatish va e’tiborni kuchaytirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qonunchilik va me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish ko`zda tutilgan.

Keksalar, avvalambor, 1941-1945 yillardagi urush va mexnat fronti faxriylarini manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo`llab quvvatlash kuchaytiriladi, yoshi ulug’ insonlar, birinchi navbatda yolg’iz qariyalar va nogironlarga ko`rsatiladigan ijtimoiy va maishiy xizmatlar ro`yxati kengaytiriladi. Ularni farovon va munosib turmush sharoitlari bilan ta’minlash uchun mahallalar, “Nuroni ” jamg’armasi, boshqa nodavlat tashkilotlari va ijtimoiy tuzilmalar tomonidan moddiy va ma’naviy qo`llab-quvvatlash ko`lami kengaytiriladi.¹

Mahallalar va fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari tashkiliy tuzilmasida keksalar va nogironlarga doimiy e’tibor qaratadigan sektor mustahkamlandi, bunda ularga xizmat ko`rsatadigan idoralar, birinchi navbatda, pensiya, ijtimoiy va tibbiy xizmat ko`rsatuvchi idoralar faoliyati muvofiqlashtirib boriladi.

Yolg’iz va ijtimoiy yordamga muhtoj keksalar uchun “Keksalar duosini olaylik” aksiyasini o`tkazish va tadbir doirasida ularni zarur mebel va uy jihozlari, kiyim-kechak, badiiy adabiyot, stol o`yinlari to`plamlari bilan ta’minlash rejalashtirilgan.

“Hech kim mehr va e’tibordan chetda qolmasin” shiori ostida tadbirlar o`tkazish mo`ljallangan. Bu tadbirlar doirasida har bir viloyatdan keksa avlod vakillarini mamlakatimizning diqqatga sazovor joylari bilan tanishtirish uchun sayohat uyushtirish, “Eng yaxshi mahalla guzari”, “Keksalar-oila tayanchi” xududiy ko`rik-tanlovlari o`tkaziladi.

¹ Keksalarni e’zozlash- barchamizning farzandlik burchimizdir. Xalq so`zi. 2015 y 27 fevral

“Keksalarni e’zozlash yili” Davlat dasturida belgilangan ushbu xayrli ishlarni amalga oshirish uchun 2 trillion 246,5 milliard so’m va 229,6 million dollar ajratish ko’zda tutilgan.

Bugungi dorilamon kunlarda umrguzaronlik qilayotgan faxriylarni xurmat qilish, e’zozlash, ularga e’tibor qaratish barchamizning farzandlik burchimizdir. Prezidentimiz Islom Karimovning “O’zbekiston Respublikasi fuqarolari-1941-1945 yillardagi urush va mexnat fronti faxriylarini “Ikkinchi jahon urushidagi G’alabaning 70 yilligi” esdalik yubileyi medali bilan mukofotlash to’g’risida”gi Farmoni ham keksalarga ko’rsatilayotgan g’amxo’rlikning yana bir yorqin tasdig’i bo’ldi. Ushbu farmon fashizm ustidan qozonilgan G’alabaga bebaho hissa qo’shgan yurtdoshlarimiz- 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini munosib hurmat-ehtirom bilan sharflash maqsadida qabul qilindi.

2015 yil 6 martda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “1941-1945 yillardagi urush qatnashchilarini rag’batlantirish to’g’risida”gi Farmoni qabul qilindi. Unda 1941-1945 yillardagi ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga 700 000 (etti yuz ming) so’m miqdorida bir martalik pul mukofati belgilangan.¹

Inson jasoratini esga olish va uni qadrlash bebaho ma’naviy boylik, hech narsa bilan o’lchab bo’lmaydigan qadriyatlarimizdan biridir. Davlatimiz kuch-qudrati nafaqat uning armiyasi bilan, balki mamlakatda xukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, fuqarolarning ahilligi, hamjihatligi, vatanparvarligi, yoshi ulug’ insonlarga ko’rsatilayotgan e’tibor va g’amxo’rligida ham namoyon bo’ladi. Zero, bu muqaddas zamin- O’zbekistonda inson azizdir.

Mamlakatimizda keksalarni har tomonlama rag’batlantirishga doir amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ular uchun nafaqat moddiy, ayni paytda katta ma’naviy ruhiy madaddir.

Yurtimizda bunday hurmat, e’tibor va g’amxo’rlik uchun chuqur minnatdorlik tuyg’usi fuqarolarimizning tinch va osuda hayoti, ertangi kuniga bo’lgan

¹ Karimov I.A. “1941-1945 yillardagi urush qatnashchilarini rag’batlantirish to’g’risida”gi farmon. Xalq so’zi. 2015 yil 7 mart

mustahkam ishonchida, yosh avlodni Vatanga, mustaqillikning buyuk g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda o'z ifodasini topmoqda.

2.2 Yoshlarga g'amxo'rlik insonparvar jamiyatning bosh maqsadi

Yoshlar – bizning ishonchimiz, tayanchimiz, kelajagimiz. Har qaysi davlat, har qaysi millat avvalo o'z farzandlari qiyofasida, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos xususiyat va fazilatlarni namoyon etadigan, uning azaliy orzu-intilishlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk kuchni ko'radi.

Boshlagan ulkan ishlarimizni davom ettirish, yangi pog'onaga ko'tarish, eng muhimi, bugungi kunda dolzarb masala bo'lmish hayotga kirib kelayotgan yoshlarimizning jamiyatimizda munosib o'rin egallashi uchun zamonning o'zi oldimizga yangi-yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Farzandlarimizga nafaqat ishonch bildirish, balki ularga o'zini amalda namoyon etishlari uchun maydonni kengaytirish kerak.

Biz iste'dodli farzandlarimiz bilan, ularning jahon sport maydonlari, xalqaro fan olimpiadalari, madaniyat va san'at olamida erishayotgan katta yutuqlari bilan haqli ravishda faxrlanamiz! Islom Karimov.

O'z kelajagi haqida qayg'urgan mamlakat o'sib kelayotgan avlod haqida alohida g'amxo'rlik qiladi. Yoshlar masalasi har bir davrda va hamisha dolzarb bo'lgan. Chunki, kelajak egalari yoshlar sanaladi. Ularga e'tibor, g'amxo'rlik azal-azaldan xalqimizga xos odat.

O'zbekistonda mustaqillikning birinchi kunidan boshlab yoshlarga g'amxo'rlik va e'tibor berilmoqda.

1991 yil 20 noyabrda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida qonun qabul qilindi.

Hozirda parlamentda ushbu qonunning yangi tahririni ishlab chiqish va qabul qilish masalasi muxokama qilmoqda.

Oliy Majlisda yoshlar masalasi bilan shug'ullanuvchi qo'mita faoliyat ko'rsatmoqda.

Yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari va maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkoni boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat.

O'zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- Millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqei, jinsi, ma'lumoti va siyosiy e'tiqodidan qat'iy nazar yoshlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish;

- yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan ximoya qilish;

- milliy, madaniy an'analarning avloddan-avlodga o'tish, avlodlarning ma'naviy aloqasi;

- yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, yoshlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o'z manfaatlarini amalga oshirish yo'llarini erkin tanlab olishlariga kafolat berish;

- jamiyatni rivojlantirishga, ayniqsa respublika yoshlari hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishini ta'minlash;

- Xuquq va burchlarning erkinlik va fuqarolik mas'uliyatining birligi.

Yoshlarga oid davlat siyosati Konstitutsiyaga, qonunlarga asoslanadi. O'zbekiston aholisining 60 foizidan ortiqini yoshlar tashkil qiladi.

Mustaqillikning birinchi kunidan boshlab yoshlarni ijtimoiy himoya

qilishning davlat miqyosidagi tadbirlari belgilandi.¹

Respublikada iqtidorli yoshlarga alohida e'tibor berilmoqda. Ular moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilmoqda. Yoshlarning erkin bilim olishlari, foydali mehnat qilishlari uchun "Kamolot" yoshlarning ijtimoiy harakati, "Iste'dod", "Oltin meros" va boshqa jamg'armalar faoliyat ko'rsatmoqda. Yosh ijodkorlarning asarlari davlat yo'li bilan chop qilinmoqda.

Farzandlarimiz dunyoda xech kimdan kam bo'lmaydigan insonlar bo'lib voyaga etishi uchun davlatimiz, jamiyatimiz barcha shart-sharoitlarni yaratib bermoqda. Fursatdan foydalanib yoshlarimizga murojaat qilmoqchiman; "Xech qachon bo'sh kelmanglar, aziz farzandlarim",- degan edi yurtboshimiz.¹

1997 yil 29 avgust qabul qilingan O'zbekiston respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirishning Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi farmoni yoshlar xaqidagi g'amxo'rlikdir.

Ma'lumki, insonning, ayniqsa yoshlarning ajralmas huquqi-bu bilim olishdir. Bugun zamonaviy maktab, litsey, kollej va universitetlarda o'qiyotgan talabalar, o'quvchilar o'zlarining bilim olish huquqlarining Konstitutsiyada mustahkamlanganligini chuqur anglashlari zarur. Zero, har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlangan.

Yoshlar uchun xarbiy xizmatni o'tash mustahkam harbiy printsiplar, yuksak vatanparvarlik fazilatlari shakllanadigan jismoniy va ma'naviy chiniqish maktabi hisoblanadi.

Harbiy qism tavsifnomasiga ega bo'lgan, biroq tanlov davomida (test sinovi) kerakli ball to'play olmagan muddatli harbiy xizmatni o'tagan abituriyentlar o'qishning pedagogika, qishloq xo'jaligi, tabiiy-ilmiy va texnik yo'nalish bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga to'lov-kontrakt asosida qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining muddatli harbiy xizmatni o'tagan va to'lov kontrakt shakli bo'yicha o'qishga qabul qilgan

¹ O'zbekiston respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risidagi qonuni. Xalq so'zi. 1991 yil 2 dekabr

¹ Karimov I.A. Xalq deputatlari Farg'ona viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi. 2006 yil 24 oktabr

talabalarga, ular o'qish davrida "Kamolot" xarakatining talaba tashkilotlari faoliyatida faol ishtirok etgan taqdirda kontrakt summasining 35 foizini to'lov tariqasida moddiy yordam ko'rsatish haqidagi taklifi ham qarorda o'z aksini topdi.

Shuni ham qayd etish lozimki, xalqimizga xos bo'lgan bolaparvarlik, etim-esirlarga g'amxo'rlik Konstitutsiyamizda o'zining mukammal ifodasini topgan. Ya'ni, 64-moddaga binoan, ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlar.

Davlat va jamiyat etim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi.

65-moddaga muvofiq, farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan qa fuqarolik holatidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar.¹

Farzandlarimiz bizdan ko'ra bilimli, kuchli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart. Takror aytaman : mana shu ezgu maqsad bugungi kunda har birimizning xayotimiz mazmuniga aylanishi darkor.

Farzandlarimiz-bizning g'ururimizdir. Bu har bir inson uchun tushunarli albatta. Biz haqiqatdan ham o'z farzandlarimiz va nabiralarimiz bilan faxrlanishni istasak- ular zamonaviy bilim va tajribaga ega, iymonli-e'tiqodli bo'lishlariga, Vatanimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimizning ishlarini davom ettirishlariga erishishimiz lozim.²

Jismonan va manan barkamol avlodni tarbiyalash masqadida O'zbekistonda yoshlarning uch bosqichli sport musobaqalari tashkil qilingan. "Umid nihollari", maktab o'quvchilari, "Barkamol avlod" kasb-hunar kolleji o'quvchilari, "Universiada" Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida sport musobaqalari navbatma- navbat barcha viloyatlarda o'tkazilmoqda.

"Umid nihollari" deb nom olgan, o'quvchi yoshlarni chiniqtirib, irodasini toblaydigan bu keskin sport musobaqalari unib-o'sib kelayotgan siz, yosh avlodimizni Vatanni himoya qilishga uni ulug'lash, qudratiga qudrat qo'shishga,

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.T. "O'zbekiston", 2014 y.13-17 betlar

² Karimov I.A. Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli va bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart. Ma'rifat.1998 y.26 dekabr

xalqaro maydonlarda uning obro` va nufuzini yanada yuksaltirishga qodir bo`lgan insonlar etib tarbiyalashga ximat qilishi shubhasiz degan edi I.A.Karimov.³

“Universiada” sport musobaqalari 2000 yilda Namanganda, 2002 yilda Buxoroda, 2004 yilda Samarqanda, 2007 yilda Toshkent shahrida, 2010 yilda Andijon va 2013 yilda Buxoroda o`tkazildi. Bu musobaqalarda Urganch davlat universiteti munosib o`rinni egallab kelmoqda.

“Yoshlar yili” davlat dasturining ma’no-mazmuni va asosiy maqsadi unib-o`tib kelayotgan farzandlarimizga yanada keng yo`l ochib berish, ulaning sog`lom va barkamol bo`lib voyaga etishi, zamonaviy bilim va taraqqiyot cho`qqilarini egallashi, o`z qobiliyat va imkoniyatlarini, kuch-quvvatini namoyon etishi uchun davlatimiz, jamiyatimiz tomonidan sharoit tug`dirish, yoshlarning huquq va manfaatlarini to`liq ta`minlash, navqiron avlodni biz qurayotgan yangi jamiyatning hal qiluvchi kuchiga aylantirish vazifasi qo`yilgan.

Yosh oilalarga e`tibor va g`amxo`rlikni kuchaytirish, ulrani huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, moddiy va ma`naviy jihatdan keng qo`llab-quvvatlash kabi o`ta muhim masalalarga e`tibor yanada kuchaymoqda.

2007 yil 18 mayda yurtboshimizning “Yosh oilalarni moddiy va ma`naviy qo`llab-quvvatlashga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi farmoni qabul qilindi.<sup>1</sup> Yoshlar ijtimoiy markazlari qoshida “Yosh oila” klublari tashkil etilgan. Bu klublarning respublika bo`yicha o`tkazgan monitoringiga ko`ra, “Kamolot” YoIH bo`limlari ko`magi bilan 2150 ta yosh oilaga 1,8 mlrd so`mdan ortiq ipoteka kreditlari ajratilgan, 2282 ta oila 1 mlrd 80 mlnga yaqin so`mlik iste`mol kreditini olishga muvafaq bo`lgan.²

Viloyatlar va shaharlarda yoshlar ijtimoiy xizmatlari markazlari faoliyat olib bormoqda. Ushbu markazlarda yosh yigit-qizlar, eng avvalo maktab o`quvchilari uchun o`z kelajagini, qaysi kasb egasi bo`lishini belgilab olishda, muayyan soha bo`yicha malakasini oshirishda ko`mak beradigan bepul kurslar ochilgan.

³ Karimov I.A. Maktab o`quvchilarining “Umid nihollari” sport o`yinlari ishtirokchilariga tabrigi. Xorazm haqiqati. 2003 y. 22 may

¹ Turkiston. 2008 y. 23 fevral

² Xalq so`zi. 2008 yil 19 may

Shuningdek, ushbu markazlar qoshida yosh fermerlar markazlari, “Yosh oila” klublari, xuquqiy maslahatxonalar faoliyat olib bormoqda.

2007 yilda yosh oilalar uchun uy-joy qurish ishlariga davlat tomonidan 46 mlrd soʻmlik ipoteka krediti ajratildi, 67 ta koʻp qavatli uy foydalanishga topshirildi va 2430 ta yosh oila alohida kvartiraga ega boʻldi. Shuningdek, 1 ming 300 nafar yosh oʻquvchining oilasiga yakka tartibda uy-joy qurish uchun er uchastkalari ajratildi.

2008 yilda “Mehribonlik” uylari bitiruvchilarini oilaviy turar joy bilan taʼminlash tizimi yaratilib, ulardan 90 nafariga yangi kvartiralar berildi.

2012 yilda “Yosh oilalarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Yurtboshimiz taʼkidlaganidek shu asosda yosh oilalar uchun 2012-2013 yillarda har biri 48 ta kvartiraga ega boʻlgan 100 ta koʻp qavatli uy qurish ishlari amalga oshirilmoqda.

2012 yil 2400 ta kvartira foydalanishga topshirilgan boʻlsa, 2013 yilda yana shuncha kvartira qurildi. Ana shunday uylarni sotib olishda qulay imkoniyat yaratish uchun minglab yosh oilalarga 15 yil muddatga moʻljallangan 210 mlrd soʻmga yaqin imtiyozli ipoteka kreditlari berildi.¹

Yurtboshimizning 2012 yil 19 yanvarda Vazirlar maxkamasidagi maʼruzasida qishloq joylarida xususiy uy-joylarni qurish boʻyicha keng koʻlamli dastur amalga oshirila boshlaganidan buyon, yaʼni soʻnggi ikki yil davomida 15 mingdan ziyod oila har tomonlama qulay yangi uy joylarga ega boʻldi.

Faqat 2012 yilning oʻzida namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 1 million 100 ming kvadrat metrga teng boʻlgan 7 ming 400 ta xususiy uy qurib bitkazildi.

Qishloq joylarida uy-joy qurilishini rivojlantirishning 2015 yilgacha moʻljallangan tasdiqlangan dasturini amalga oshirish ishlariga 2 mlrd 200 mln

¹ Karimov I.A Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi “Inson manfaati, huquq va erkinliklarini taʼminlash, hayotimizning yanada erkin va obod boʻlishiga erishish-bizning bosh maqsadimiz”.Xalq soʻzi. 2012 y. 8 dekabr

AQSh dollari qiymatidagi mablag' yo`naltirish ko`zda tutilmoqda.²

Ushbu uy-joylardan yosh oilalarga ham imtiyozli kreditlar asosida berilgan.

O'zbekiston respublikasi prezidenti I.Karimov Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so`zlagan ma'ruzasida ta'kidlaganidek, "Viloyatda qishloq joylarida namunaviy loyihalar asosida turar-joy massivlarini kompleks qurish ishlari ham izchil olib borilmoqda. O'tgan uch yil maboynida 32 ta massivda 1ming 160 ta uy-joy, 43 kilometrdan ziyod gaz tarmog'i, 70 kilometr suv tarmog'i, 30 kilometr elektr tarmog'i, 35 kilometr avtomobil yo'llar va boshqa infratuzilma ob'ektlari bilan birga qurib foydalanishga topshirildi".¹

"Mustahkam oila yili"da viloyatning 20 ta qishloq massivida 650 ta uy-joy barpo qilinib, o'z egalariga tayyor holda topshirildi.

"Barkamol avlod yili" davlat dasturi 11 ta yo`nalish va 102 banddan iborat bo'lib, unda bolalar va yoshlarni barkamol rivojlanishi, ularning haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy-normativ bazani takomillashtirish, onalar va bolalarning reprodktiv salomatligi muhofazasini, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, uning moddiy texnika bazasini kuchaytirish asosida yosh avlodning har tomonlama kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish ko`zda tutilgan. Dasturda o'sib kelayotgan avlodning bugungi kunda ta'lim sohasida tashkil etilgan zamonaviy moddiy-texnik bazadan samarali foydalanishini ta'minlash, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimidagi yo`nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha davlat ta'lim standartlari, o`quv dasturlari, o`quv metodik adabiyotlarni qayta ko`rib chiqish va takomillashtirishga alohida ahamiyat berilgan. Bundan tashqari, ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, bu sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada keng joriy etish, informatsion va kommunikatsion texnologiyalar, raqamli va keng tarmoqli telekommunikatsiya aloqalari va Internet tizimini kengaytirish, bilim yurtlarida o`quv laboratoriyalari

² Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Xalq so'zi. 2012 y. 20 yanvar

¹ Karimov I.A. Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi ma'ruzasi. Ishonch. 2012 y. 11 oktabr. 123 son

bazasini mustahkamlash, o'qituvchi va murabbiylar mehnat faoliyatini moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirishning samarali tizimini yaratish masalalari ham dasturda o'z ifodasini topgan.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish lozimki, butun mamlakatimiz yoshlarining o'z istak va hohishlariga ko'ra o'qishi, bilim olishi, kasb-hunar egallashi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Prezidentimizning beqiyos g'amxo'rliklari bois, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini bitirgan kichik mutaxassis qadrlarni ish bilan ta'minlash ham ustuvor vazifa sifatida belgilanib, yuz minglab yoshlarning jamiyatda o'z o'rinini topishga yaqindan ko'mak berilmoqda. Bitiruvchilarning bandligini ta'minlash borasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining barcha hududlardagi boshqarmalari bilan hamkorlikda ta'lim muassasalari bitiruvchilari uchun bo'sh ish o'rinlari bo'yicha yarmarkalar, shuningdek, yirik tuman va shaharlarda ish beruvchi korxonalarni jalb etgan holda olib borilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar yo'lga qo'yildi. Ana shu olijanob ishlarning mantiqiy davomi sifatida "Barkamol avlod yili" Davlat dasturida kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini, xususan qishloq joylaridagi yoshlarni tadbirkorlik faoliyatini keng jalb etish, ish o'rinlari bilan ta'minlash kabi chora-tadbirlar belgilandi.

2010 yilga "Barkamol avlod yili" deb nom berishning sabablari xalqimiz va davlatimiz, har qaysi inson nimaniki o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lmasin, qanday buyuk ishlarni amalga oshirishga intilmasin, barcha harakatlar, ezgu niyatlar markazida, tabiiyki, farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi.

Mamlakatimizda 2010 yilga "Barkamol avlod yili" deb nom berilishining sabablarini quyidagicha izohlash mumkin:

-xalqimiz va davlatimiz, har qaysi insonning barcha xarakatlari ezgu niyatlari markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan

kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi;

-faqat har tomonlama etuk avlodgina bugungi hayotning o'zi oldimizga qo'yayotgan o'ta murakkab, og'ir sinov va qiyinchiliklarni engish, ko'zlangan yuksak marralarimizni egallashning eng asosiy sharti hisoblanadi;

-hozirgi kunda butun dunyoni qamrab olgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida yurtimizda tinchlikni saqlab, iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, ayni shunday og'ir sharoitda xalqimiz hayotining tobora yuksalishiga erishishda yoshlarimizning chuqur bilim va kasb-hunar egallashi uchun zamin yaratilgani, ularni zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlar qilib tayyorlangani mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda;

-yurtimizning ertangi rivoji yo'lida tuzilgan dasturlar va ularni bajarish uchun yaratilgan moddiy asos va imkoniyatlar safarbar etilgan sarmoyalarning barchasini amalga oshiradigan, ro'yobga chiqaradigan qudratli omil-bu yuqori malakali ishchi kuchi va yurtimizning ertangi kuni taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan etuk mutaxassis yoshlar hisoblanadi.

Bugungi kunda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekiston hukumati "Barkamol avlod yili" davlat dasturida belgilangan kompleks chora-tadbirlarni bajarish uchun 2010 yilda moliyalashning barcha manbalari hisobidan 8 trillion so'm atrofidagi mablag', jumladan, 1,8 trillion so'm davlat mablag'lari, tijorat banklarining 3,3 trillion so'mlik kreditlari va mas'ul ijrochilarning 2,7 trillion so'mdan ortiq mablag'larini yo'naltirishni mo'ljallagan. Aytish kerakki, jahondagi hech bir davlat yosh avlod kamoloti uchun bunchalik katta e'tibor va mablag' ajratmagan.

O'lkamizda inson sha'ni va g'ururi e'zozlanib, u jamiyat taraqqiyotining asosiy omili, qudratli kuch sifatida e'tirof etilgani sababli istiqlol yillarida qabul qilingan barcha ijtimoiy dasturlar bir-birini mantiqiy davom ettirgan holda, avvalo inson manfaatlarini ko'zlashga, uning kamolotini ta'minlashga qaratilgan yaxlit tizimni tashkil etdi.¹

Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga

¹ Bu muqaddas vatanda azizdir inson. T. 2010y. 128-129 betlar

ko'maklashish, yosh tadbirkorlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali ularning biznesini rivojlantirishga bo'lgan qiziqishlarini o'ttirish, yosh tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda turli sohalarda faoliyat yuritayotgan yoshlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida "Kamolot" yoshlar ijtimoiy xarakati tomonidan qator vazirlik, idoralar va tijorat banklari hamkorligida bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning 2010 yil 28 iyuldagi "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ijrosi yuzasidan olib borilayotgan ishlarda yoshlarning istiqbolli loyihalari qo'llab-quvvatlanayotir. Yoshlarning kollejdagi olgan bilim va ko'nikmalarini tadbirkorlikka yo'naltirish, hunarlari orqali tadbirkorlik faoliyatini boshlash, ana shu hunarlari bilan jamiyatga, oilaga naf keltirishga asos yaratilayotir. Demakki, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami ham kengayib bormoqda.

Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan 2013 yilda ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturida 970 mingdan ortiq ish o'rin ochilishi ko'zda tutilmoqda. Dasturda yoshlarni kasbga qayta tayyorlash ishlarini tizimli yo'lga qo'yish, mahalliy tarmoq korxonalari bilan kasb-hunar kollejlari hamkorligini yanada takomillashtirishga alohida o'rin berilgan. Unda bitiruvchilarni ishlab chiqarish amaliyotiga keng jalb etish bo'yicha kooperatsiya aloqalarini mustahkamlashga katta e'tibor qaratilgan. Shu asosda korxonalarini moddiy-texnik jihatdan va kadrlar bilan amalda qo'llab-quvvatlash kuchayadi. Kelajak egalarining jamiyatda munosib o'rin egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratildi. Masalan, Dastur ijrosi kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, ularni xunarmandchilik, servis va turizm sohasidagi tadbirkorlikka yo'naltirishga keng yo'l ochib beradi. O'z navbatida, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini kichik biznes sohani yanada rivojlantirish hisobiga ishga joylashtirish, kollejlardagi o'quvchilar va korxonalar o'rtasida tuzilgan uch tomonlama shartnomalarning so'zsiz bajarilishi yuzasidan nazortani yanada kuchaytirish ham dolzarbdir. Dasturdagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi esa ana shu masalaga

samarali echimdir.

Viloyatimiz shahar va tumanlarida yoshlarni ish bilan ta'minlash maqsadida "bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari" o'tkazish an'anaga aylangan. Yarmarkalarda yoshlarimiz o'zlariga ma'qul bo'lgan korxonalarda, fermer xo'jaliklarida ishlash uchun yo'llanmalar olmoqdalar.

2014 yilning o'tgan davrida 60 mingdan ortiq kishi ishga joylashtirildi. Ularning aksariyati yoshlardir.

Viloyatimizda kichik biznes, xususiy tadbirkorlik hamda fermerlikni rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirish yo'li bilan ham yangi ish o'rinlari yaratish borasida jadal sur'atda ish olib borilmoqda.

Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, ularning iqtidorlarini keng namoyish etishda "Tashabbus" ko'rik tanlovi ham muhim rol o'ynamoqda. Tanlovda yuqori tanijalarga erishayotgan kishilar asosan yoshlar, yosh fermerlar, yosh tadbirokrlardir.

Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini ishga joylashtirish ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturining muhim yo'nalishlaridan biridir. 2013 yilda bo'sh va zahiradagi ish o'rinlari xisobiga kasb-hunar kollejlarning 500 mingdan ziyod bitiruvchilari ishga joylashtirildi. Shu maqsadda "kollej-korxona" tizimi bo'yicha kollejlarga iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi 90 mingdan ziyod korxona va tashkilot biriktirib qo'yiladi, bitiruvchilarning ish ahtarishlari vaqtini qisqartirish uchun esa barcha yirik shaharlar va tumanlarda kamida 900 ta bo'sh ish o'rinlari yarmarkasi o'tkaziladi. Bundan tashqari tijorat banklari tomonidan kollejlarda va oliy o'quv yurtlarining bitiruvchilariga ularning o'z tadbirkorlik ishini tashkil etish hamda yo'lga qo'yish uchun imtiyozli mikrokreditlar ajratish tajribasi davom ettiriladi.

Ertangi kundan umidvor bo'lgan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan xalq borki, o'g'il-qizlarining har tomonlama barkamol bo'lib voyaga etishini ko'zlaydi. Yurtboshimiz Islom Karimov mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon

hamjamiyatidan qanday o`rin egallashni ham- bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o`sib kelayotgan farzandlarimiz qanday inson bo`lib ulg`ayishiga bog`liqligini kuyunchaklik bilan ta`kidlaydi. 2013 yil 22-23 yanvarda “O`zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatini amalga oshirishning dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanida mamlakatimizda bu borada olib borilayotgan ishlar yana bir bor keng ko`lami bilan namoyon bo`ldi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida amalga oshirilayotgan farovon demokratik davlat va jamiyatni barpo etishga yo`naltirilgan tub islohotlar siyosatining o`ziga xos xususiyati uning aniq ijtimoiy yo`naltirilganligida ekani ta`kidlandi. Bugungi kunda O`zbekiston aholisining 60 foizdan ortig`ini yoshlar tashkil etadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha ijobiy o`zgarishlar zahirida har tomonlama baramol- jismonan sog`lom, aqli etuk, nafaqat ko`plab bilimlarni, hozirgi davrda talab katta bo`lgan kasb-hunarlarni egallagan, mustaqil va ijodiy fikrlashga qodir, intellektual salohiyati yuksak yosh avlod to`g`risida g`amxo`rlik qilishdek ustuvor masqad mujassam ekani tabiiydir. Davlatimiz rahbari ta`kidlaganidek, oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz- mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham O`zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o`rin egallashi ham- bularning barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o`sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo`lib voyaga etishiga bog`liqdir.

Mamlakatimizda yuritilayotgan kuchli yoshlar siyosati mustahkam huquqiy asosga ega. U O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalariga, ushbu sohaga tegishli 22 qonunda o`z ifodasini topgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so`ng qabul qilingan dastlabki qonun hujjatlaridan biri 1991 yil 20 noyabrdagi “O`zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to`g`risida”gi qonun ekanligida katta ramziy ma`no bor. Prezidentimizning qator Farmon va qarorlari o`sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol g`oyasi, o`z Vatani va xalqiga mehr-muhabbat va

sadoqat ruhida tarbiyalashga, uni har tomonlama-jismonan, ma'nan va ruhan barkamol etib voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan. Ayni paytda ko'plab maqsadli davlat dasturlari ham hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda. Bu boradagi ishlarning yuqori samaradorligi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda jamoat tuzilmalari, o'z saflarida 5,5 million yigit-qizni birlashtirgan "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi, "Mahalla" xayriya jamoat fondi va boshqa tashkilotlar o'rtasida tobora kengayib borayotgan ijtimoiy hamkorligi natijasida ta'minlanmoqda.¹

Salomatlikni ta'minlash, uzluksiz ta'lim va barkamol yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha mamlakatimizda yaratilgan milliy modellar butun dunyoda yuksak baholanmoqda. Jumladan, 2011 yilning noyabrida "O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: "Sog'lom ona-sog'lom bola" mavzuida Toshkentda bo'lib o'tgan xalqaro simpoziumda nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan bu borada amalga oshirilgan ishlarga yuqori baho berildi va ular boshqa mamlakatlar uchun namuna sifatida e'tirof etildi. 2012 yilning fevralida poytaxtimizda o'tgan "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash-mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" xalqaro konferentsiyada O'zbekistonda yaratilgan uzluksiz ta'lim va tarbiya milliy tizimi boshqa davlatlar uchun etalon, deb e'lon qilindi. Bularning barchasi, deb ta'kidlandi anjumanda, O'zbekiston, haqiqatdan ham, bolalar va yoshlarning kelajagi, demakki, mamlakat istiqboli haqida g'amxo'rlik qilinadigan davlat ekanidan dalolatdir".

Yurtimizda ayni vaqtda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayoni, ya'ni kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadimizni aholining asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlar ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zotan, davlatimiz rahbari alohida ta'kidlaganidek, bugungi kunda faqat yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan intellektual

¹ Ivanova A. O'zbekiston yoshlar siyosati- mamlakatni yanada rivojlantirish yo'lida. Xorazm xaqiqati. 2013 y. 26 yanvar

rivojlangan hamda professional tayyorgarlikka ega bo'lgan yoshlarga sifatli jadal va innovatsion taraqqiyotning eng muhim sharti va garovi bo'la olishi aynan ular mamlakatning buyuk kelajagini ta'minlash mumkin.

Darhaqiqat yoshlar masalasi mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishi sanaladi. Prezidentimizning 2014 yil 6 fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir.

Binobarin, mustaqillik yillarida mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning "o'zbek modeli" asosida yoshlar huquq va manfaatlarini ta'minlashning huquqiy, tashkiliy asoslari yaratildi, ularning salohiyati, iste'dodini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashning mustahkam mexanizmi shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, sohaga oid 20 dan ortiq qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bu borada mustahkam huquqiy asos vazifasini bajarmoqda. Ayniqsa, 1991 yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun yoshlarning ijtimoiy hamda ma'naviy kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratib berishga qaratilgan yoshlarga oid siyosatni ishlab chiqish va uni amalga oshirishning qonuniy asoslarini yaratib berdi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda qabul qilingan Oila kodeksi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida", "Ta'lim to'g'risida", "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida", "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida", "Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning profilaktikasi to'g'risida", "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi qonunlar ham bevosita yoshlar tarbiyasida, ular orasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ish bilan bandligini oshirish, huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o'rinda yoshlar bilan ishlashda nafaqat davlat muassasalari, balki fuqarolik jamiyati institutlarining ham faol ishtirok etayotganini qayd etish joiz. Bu

mexanizmlar, o'z navbatida, mustaqillik yillarda "Sog'lom avlod yili", "Ona va bola yili", "Yoshlar yili", "Barkamol avlod yili" davlat dasturlarini samarali amalga oshirishning omili bo'ldi. Ushbu dasturlar doirasida sog'lom va barkamol ovlodni tarbiyalash, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yigit-qizlarimizni har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha aniq chora-tadbirlar yo'naltirildi. 2014 yilning "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinishi ham mazkur islohotlar izchilligidan dalolatdir.¹

Har yili parlamentimiz tomonidan tasdiqlangan ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dastrulari esa, eng avvalo, yoshlarni, xususan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda. O'tgan yili bunday yoshlarning 500 ming nafari ish bilan band qilingani ana shu qat'iy va to'g'ri siyosatning natijasi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bunday keng ko'lamdagi islohotlar yoshlarning ta'lim-tarbiyasi sohasida yanada izchil davom ettirilmoqda. Zamonaviy ta'lim standartlari hamda dasturlarini takomillashtirish, maktablar, litsey va kollejlar, olty o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash masalalariga katta e'tibor berilmoqda. O'tgan yili 28 ta yangi kasb-xunar kolleji qurilib, 381 umumta'lim maktabi, oliy o'quv yurtlari tizimidagi 45 ta ob'ekt, 131 kasb-hunar kolleji va litseylar rekonstruktsiya qilingani va kapital ta'mirlangani, shuningdek, 55 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, 112 ta bolalar sporti ob'ekti hamda 4 ta suzish havzasi foydalanishga topshirilib, zarur uskuna va jihozlar bilan ta'minlangani bunga yaqqol misoldir.

Prezidentimizning yangi qarori, shu nuqtai nazardan, bu sohada kechayotgan bosqichma-bosqich, tadrijiy islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, bu boradagi ishlarning yangi bosqichini boshlab bermoqda.

Qarorga binoan, O'zbekiston Respublikasida 2014 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shicha chora-tadbirlar dasturi ma'qullandi. Dasturda yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik

¹ Miraqulov M. Yoshlarga e'tibor-kelajakka e'tibor. Xalq so'zi. 2014 yid 21 fevral

davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida faolligini oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo'lgan vatanparvar yigit-qizlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish, ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Shu bilan birga, mazkur hujjatda yoshlarni jismoniy tarbiya hamda sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, voyaga etmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi eng dolzarb yo'nalishlarda chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, dastur ijrosida davlat va fuqarolik jamiyat institutlari, davlat xokimiyatining barcha institutlari, markaziy va mahalliy darajadagi idoralar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklagan.

Umuman, dasturda ko'zda tutilgan chora-tadbirlar ko'lami ancha keng bo'lib, ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, sud-huquq yo'nalishlaridagi tadbirlarni ko'zda tutadi. Xususan, yoshlarga oid davlat siyosatining qonunchilik asoslarini takomillashtirish, mahallalardagi voyaga etmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiyalar faoliyatini samarali tashkil etish, yosh tadbirkorlar uchun "Biznes-inkubator"lar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda ta'lim kreditlarini berish tizimini yanada kengaytirish, yoshlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini tahlil qilish, erta nikohning oldini olish bo'yicha muhim chora-tadbirlar belgilab olingan.¹

Muxtasar aytganda, amalga oshirilayotgan barcha sa'y-xarakatlar, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishi, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga

¹ Miraqulov M. Yoshlarga e'tibor-kelajakka e'tibor. Xalq so'zi. 2014 yid 21 fevral

olishga qodir bo`lib shakllanishi hamda Vatan tuyg`usini chuqur anglaydigan, irodasi mustahkam, yuksak ma`naviyatli bo`lib kamol topishlariga xizmat qilishi bilan ahamiyatli va diqqatga sazovordir.

Xulosa

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov respublikamizning birinchi rahbari bo`lgandan boshlab, aholini ijtimoiy himoyalashga katta e`tibor bilan qaramoqda.

Istiqlolga erishganimizdan keyin aholini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish bo`yicha bir necha huquqiy-me`yoriy xujjatlar qabul qilindi.

Prezident I.A.Karimovning 1994 yil 24 avgustdagi “Kam ta`minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to`g`risida”gi 2007 yil 19 martdagi “Aholini ijtimoiy himoyalash tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to`g`risida”gi farmonlari muhim ahamiyatga ega bo`ldi.

O`zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash davlat siyosatining ustuvor yo`nalishiga aylandi.

Davlat organlari, mahalla, jamoat tashkilotlari, nodavlat va notijorat tashkilotlari ijtimoiy sheriklik asosida inson manfaatlari yo`lida hamkorlik

qilmoqdalar.

Mana 19 yildirki, 1997 yildan buyon har bir yilga nom berilib, davlat dasturlari qabul qilinmoqda.

Bu ijtimoiy dasturlarning aholini ijtimoiy ximoyalashdagi ahamiyati katta bo'lmoqda. Jumladan, "Inson manfaatlari yili", "Oila yili", "Ayollar yili", "Sog'lom avlod yili", "Ona va bola yili", "Qariyalarni qadrlash yili", "Ijtimoiy himoya yili", "Yoshlar yili", "Barkamol avlod yili" va boshqa yillar uchun ishlab chiqilgan ijtimoiy dasturlar bo'yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu dasturlar bir yilga emas, katta davrga mo'ljallangan bo'lib, bularning ayrimlari hozir ham amalda.

Ayniqsa, yurtimizda aholining ehtiyojmand qismini- yolg'iz pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali oilalar, etim-esirlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga e'tibor berilmoqda.

Istiqlol yillarida davlatimizning aholini ijtimoiy himoyalashga ajratgan mablag'i besh barobar oshdi. Aholini tabiiy gaz, elektr energiyasi, toza ichimlik suvi bilan ta'minlashga, tibbiy xizmat ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Aholini ijtimoiy himoyalashda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining mahallalarni roli va mavqei oshmoqda.

Aholini uy-joy bilan ta'minlash, xalq ta'limini rivojlantirish, pensiya ta'minotini yaxshilash, aholining daromadlarini oshirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Istiqlolning birinchi kunidan boshlab davlatimiz yoshlarga katta g'amxo'rlik ko'rsata boshladi. Chunki mamlakatimiz aholisining 64 foizi yoshlar. Jamiyatimizni xarakatlantiruvchi kuch bu yoshlardir.

1991 yil 20 noyabrda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi yoshlar manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynadi.

Davlatimiz yosh tadbirkorlarga, Oliy o'quv yurtlarini va kasb-hunar kollejlarini bitkazgan yoshlarga katta g'amxo'rlik ko'rsatmoqda.

Xalqimizning turmushi yaxshilanib, xayot go'zallashib bormoqda.

1990 yilda O'zbekiston xalqining o'rtacha yoshi 67 yosh bo'lgan bo'lsa, hozirda o'rtacha 73 yosh erkaklar, 75 yosh xotin-qizlar yashamoqda. Bu davlatimizning kuchli ijtimoiy siyosati natijasidir. Ushbu yutuqlarni xalqimiz orasida hamda butun dunyoga targ'ibot qilish ziyolilarimizning muqaddas burchi xisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning mohiyatini umumta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb-xunar kollejlarda, Oliy ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarga o'qitish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda "isloxot, isloxot uchun emas, isloxot inson uchun, uning manfaatlarini ta'minlash uchun" degan shior to'la amalga oshirilmoqda.

Bularning hammasi yurtboshimizning olib borayotgan uzoqni ko'zlab, dono va oqilona siyosatining natijasidir.

Shuning uchun yurtimizda tinchlik, osoyishtalik va barqaror taraqqiyot ta'minlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2014 y
2. Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz- yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. Toshkent, "O'zbekiston", 2008 y
3. Karimov I.A. "2007-2010 yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muxofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yanada kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Xalq so'zi. 2006 yil 3 sentabr
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. Toshkent, "O'zbekiston". 2010 y
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent.

“O`zbekiston”, 1999 y

6. Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish- yorug' kelajagimizning omilidir. Xalq so'zi. 2013 y 7 dekabr
7. Karimov I.A. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirish- bosh maqsadimizdir. Xalq so'zi. 2014y. 6 dekabr
8. Karimov I.A. “Keksalarni e'zozlash yili” davlat dasturi to'g'risidagi qarori. Xalq so'zi. 2015 y. 19 fevral
9. Karimov I.A. O`zbekiston: Milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T. “O`zbekiston”, 1996 y
10. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish-ustuvor vazifamizdir. T. “O`zbekiston”, 2006 y
11. Karimov I.A. Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish-oliy saodatdir. T. “O`zbekiston”, 2007 y
12. Karimov I.A. “Pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni. Xalq so'zi. 2007 y 18 sentabr
13. Karimov I.A. “2011-2015 yillarda yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaror. Xalq so'zi. 2011 y 31 may.
14. Karimov I.A. “1941-1945 yillarda urush va mexnat fronti faxriylarini ijtimoiy-qo'llab- quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni. Xalq so'zi. 2014 y. 14 sentabr
15. Karimov I.A. “Keksalarni e'zozlash yili” davlat dasturi to'g'risidagi qaror. Xalq so'zi. 2015 y. 19 fevral
16. Karimov I.A. “1941-1945 yillardagi urush qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida”gi farmon. Xalq so'zi. 2015 yil 7 mart
17. Karimov I.A. Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart. Ma'rifat. 1998 y. 26 dekabr

- 18.Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash-bizning oliy maqsadimiz. Xalq so'zi. 2008y 6 dekabr
- 19.Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin bo'lishiga erishish-bizning bosh maqsadimiz. Xalq so'zi. 2012 y. 8 dekabr
- 20.Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ldi. Xalq so'zi. 2012 y.20 yanvar
- 21.Karimov I.A. Xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi ma'ruzasi. Ishonch. 2012 y. 11oktabr
- 22.Abdulqosimov H. Davlat siyosati: inson manfaatlari va ijtimoiy himoya. Fuqarolik jamiyati. 2007 y. 1 son
- 23.Begmatov A. Kuchli ijtimoiy siyosat mohiyati. T. 2005 y
- 24.Burhonov H. "Oydin hayotda o'rnimiz, obodlikda ulushimiz bor". O'zbekiston ovozi. 2011 y . 13 dekabr
- 25.Tojibaev M. Xalq farovonligi g'oyasi va uning mohiyati. Falsafa va huquq.2009y. maxsus son
26. Tursunov R. Ijtimoiy himoya tizimida mahallaning o'rne. Fuqarolik jamiyati. 2007 y.1 son
- 27.Ibragimov M. Ijtimoiy himoya-asosiy mezon.Jamiyat va boshqaruv. 2008y. 1 son
- 28.Ivanova A. O'zbekiston yoshlar siyosati- mamlakatni yanada rivojlantirish yo'lida. Xorazm haqiqati. 2013 y. 26 yanvar
- 29.Norbekov A. O'zbekistonda ijtimoiy kafolat tizimini yaratish muammolari. T. 2009y
- 30.Muhammaminov M. Davlat dasturining ijrosi: obod turmushning huquqiy asoslari yanada mustahkamlandi.Inson va qonun. 2013 y. 6 fevral
- 31.Mamadjanov U.Nogironlar huquqlarining qonuniy kafolatlari. Huquq. 2010y. 8 aprel
- 32.Miraqulov M. Yoshlarga e'tibor-kelajakka e'tibor. Xalq so'zi. 2014y. 21 fevral

33. Usmonova M. Keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoyalash. T. 1994 y
34. Umarova Sh. Aholini ish bilan ta'minlash va uning huquqiy asoslari. O'zbekiston ovozi. 2006 y. 25 avgust
35. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga sharh. Adolat. 2007y. 23 mart
36. O'zbekiston Respublikasining "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonun (yangi tahrir) Xalq so'zi. 2008y. 18 iyun
37. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonun. Xalq so'zi. 1991y. 2 dekabr
38. Yormatov F. Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish- davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishidir. Falsafa va huquq. 2010y. 1 son
39. Keksalarni e'zozlash- barchamizning farzandlik burchimizdir. Xalq so'zi. 2015 y. 27 fevral
40. Xudayshukurov Z. Mexnat muhofazasi. Xalq so'zi. 2012 y 15 fevral
41. Xidirov G'. Ijtimoiy himoya va qonunchilik. Xalq so'zi. 2008 y. 18 iyun
42. Yagonasan, muqaddas vatanim sevgi va sadoqatim senga bahshida, go'zal O'zbekistonim. T. "Ma'naviyat" 2014 y
43. Ergashev I va boshqalar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. T. "Akademiya", 2005 y